

**КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА ТУРИЗМ СОХАСИНИНГ  
ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ МОҲИЯТИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ****Рахматов Зиёдулло Носирович****ТДТУ, «Корпоратив бошқарув» кафедраси мудири**

**Аннотация:** Ушбу мақолада туризм соҳасида кластер ёндашувини жорий этишга назарий ёндашувлар, унинг моҳияти ва мазмуни, туристик кластерларнинг ўзига хос хусусиятлари, кластер шаклланишининг асосий босқичлари, туризм соҳасида кластер моделига қўйиладиган талаблар, туристик кластерларни шакллантиришнинг асосий тамойиллари ва йўналишлари, ҳудудларда туризм кластери сиёсатини ишлаб чиқиш ва реализация қилишнинг асосий воситалари ва йўналишлари тадқиқ қилинган.

**Калит сўзлар:** туризм, туризм кластери, туризм индустрияси, кластер модели, туризм кластери сиёсати, маркетинг тадқиқотлари.

Жаҳон иқтисодий тизими ривожланишининг ҳозирги босқичида туризм саноати жаҳон иқтисодиётидаги энг юқори даромадли ва энг тез ривожланаётган тармоқлардан бири ҳисобланади. Туризм хизматлари глобал ялпи маҳсулот, глобал инвестициялар, барча иш ўринлари ва глобал истеъмол харажатларининг тахминан 10% ни ташкил қилади. Жаҳон Саёҳат ва Туризм Кенгаши (WTTC) маълумотларига кўра туризм хизматларининг ўртача ўсиш суръати йилига 7-9% ни ташкил этади, бу бутун жаҳон иқтисодиётининг ўртача йиллик ўсиш суръатларидан анча юқоридир [4]. Туризм хизматлари 21-асрда кўплаб мамлакатлар ва минтақаларнинг тузилиши ва иқтисодиётига сезиларли таъсир кўрсатадиган муҳим ижтимоий, сиёсий ва маданий ҳодисага айланди.

Туризм хизматлари замонавий иқтисодиётнинг энг муҳим йўналишларидан бири бўлиб, одамларнинг эҳтиёжларини қондириш ва аҳолининг ҳаёт сифатини яхшилашга қаратилади. Бундан ташқари, иқтисодиётнинг бошқа кўплаб тармоқларидан фарқли ўлароқ, туризм табиий ресурсларнинг тугашига олиб келмайди. Туризм минтақа ялпи ички маҳсулотини шакллантиришда, қўшимча иш ўринлари яратишда ва аҳоли бандлигини таъминлашда иштирок этади; вилоят иқтисодиётининг транспорт коммуникациялари, қурилиш, қишлоқ хўжалиги, халқ истеъмоли моллари ишлаб чиқариш каби муҳим тармоқларига катта таъсир кўрсатади, яъни ҳудудни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда катализатор бўлиб хизмат қилади.

Иқтисодиётнинг инновацион ривожланишишароитида республикамизда ҳудудий кластерларнинг ривожланиши миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигин ошириш ва хўжалик субъектлари фаолиятининг

интенсивлигини таъминлашнинг муҳим омили ва шарт-шароити бўлиб ҳисобланади.

Иқтисодиёт ва менежмент фанларида, хусусан, туризмда «кластер» атамаси кўп қўлланиладиган тушунча ҳисобланиб, унинг моҳияти сўнгги ўн йилликларда жуда тез ва олдиндан айтиб бўлмайдиган тарзда ўзгарди. Кластерлар, хусусан, туристик кластерлар яхлит ҳолда мамлакатимиз иқтисодиётини, шунингдек, миллий ва халқаро бозорларда туризм хизматларининг рақобатбардошлигини ошириш имконини беришни асосий мақсад қилишни назарда тутувчи ушбу соҳани инновацион ривожланиши учун ўзига хос ташкилий-иқтисодий механизмга айланди. Бироқ, ҳозирги вақтда туризм соҳасида кластер ёндашувини амалга ошириш жараёнида муайян қийинчиликлар юзага келмоқда. Бу эса, ўз навбатида, ушбу соҳада амалга оширилаётган кластер сиёсатини реализация қилиш самарадорлигини ошириш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишни зарурат қилмоқда.

Кластер ташкилий тузилмасининг шаклланиши инновацион иқтисодиётни шакллантириш ва ривожлантиришда муҳим рол ўйнайди. Бозордаги рақобат муҳити шароитида кластер аъзолари ўзларининг иқтисодий ресурслари ва молия институтларининг бошқа ресурсларидан янги маҳсулот ва хизматлар ишлаб чиқариш, юқори иқтисодий самарадорликка эришиш ҳамда янги технологиялар, товар ва хизматларнинг замонавий бозорларига чиқиш учун фойдаланадилар.

Туризм кластерини яратишдан мақсад ҳудуднинг иқтисодий барқарорлик даражасини ошириш, синергик эффект орқали инфратузилмани ривожлантириш, шу жумладан туризм кластерига киритилган корхона ва ташкилотлар фаолияти самарадорлигини ошириш; инновацияларни рағбатлантириш; туризм бизнесининг янги йўналишларини ривожлантиришни рағбатлантиришдан иборатдир. Замонавий туризм кластери бир қатор муҳим муаммоларни ечимини топишга, жумладан, минтақанинг мавжуд табиий салоҳиятидан оқилона фойдаланишни ҳал қилишга қодир; ҳудудда ички ва кириш туризмни устувор ривожлантириш; ҳудудда юқори самарали ва рақобатбардош туризм комплексини яратиш ҳамда ривожлантириш; мамлакатимиз тарихий, маданий ва маънавий меросини намоиш этиш; туризм фаолиятини давлат томонидан тартибга солиш тизимини шакллантириш; туризм соҳасида тадбиркорликнинг турли турларини (ўрта ва кичик) ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш; туризм маҳсулотларини илгари суриш, минтақанинг туристик ҳудуд сифатидаги қулай имиджини яратиш бўйича маркетинг стратегиясини ишлаб чиқиш; туристик объектларни реконструкция қилиш, янгиларини қуриш учун бюджетдан ташқари манбаларни жалб этиш; туризм кадрларини тайёрлаш,

қайта тайёрлаш ва малакасини оширишнинг замонавий тизимини яратиш; давлат-хусусий шериклик механизмларини амалга ошириш, кичик-ўрта туризм бизнесини ривожлантириш учун инвестиция платформаларини шакллантиришга қодирдир.

Туризм кластери учун қуйидаги фундаментал тамойилларни белгилаш мумкин: жараённинг барча иштирокчилари ўртасида ўзаро тушуниш ва ҳамкорлик қилишга тайёрлик; конструктив мулоқотнинг барча иштирокчиларининг тенглиги ва тенглиги; ҳамкорлик шакллариини ихтиёрий танлаш; тўғридан-тўғри кластер иштирокчилари ўртасида тузилган хўжалик шартномаларига мувофиқ ўзаро маълумотлар ва ўз зиммаларига олган мажбуриятларни бажариш. Туризм кластерининг ҳодиса сифатидаги моҳияти унинг вазифалари орқали очиб берилади.

Туризм кластерининг иқтисодий вазифаларига қуйидагилар киради: - унинг шаклланиши ва ривожланиши вилоят ғазнасига чет эл валютаси тушишини, вилоят бюджетига солиқ тушумларини кўпайтиришни таъминлайди - меҳнат унумдорлигини сезиларли даражада оширишни ва жорий этишни рағбатлантиради; ҳудуддаги туризм корхоналарида инновациялар - унинг ривожланиши бутун маҳаллий инфратузилмани (алоқа йўллари, алоқа линиялари, маиший хизмат кўрсатиш шохобчалари, дўконлар, меҳмонхоналар, кафелар, ресторанлар, клублар ва бошқалар) ривожлантиришга ва ҳудудда иш ўринларини кўпайтиришга ёрдам беради; - унинг фаолияти сувенирлар ишлаб чиқариш билан боғлиқ тармоқларни ривожлантиришни рағбатлантиради - табиий ва маданий-тарихий меросни сақлаш ва улардан фойдаланишни таъминлайди;

Ижтимоий функцияларга қуйидагилар киради: - бу инсоннинг кучини ва меҳнат қобилиятини тиклашга ёрдам беради - унинг фаолияти инсон фаолиятининг экологик жиҳатдан қулай соҳасидир - бу минтақалараро ҳамкорликни бойитади.

Туризм кластери ҳамкорликдаги иқтисодий тизим сифатида динамик жиҳати синергетик самара бўлиб, мультипликатор самарасига эришиш имкониятини таъминлайди. Туристтик кластер доирасида эришилган муносабатларнинг синергияси унинг барча элементларидан жами эришилган натижаларни уларнинг қисман йиғиндисидан кўра, кўпроқ самарага бирлаштириш орқали амалга оширилган фаолиятидан турли хил ижтимоий-иқтисодий самараларни олиш имконини беради. Туристтик кластернинг шаклланиши техник-технологик, ташкилий, маркетинг ва бошқа соҳаларга инновацияларни жорий этиш орқали, унинг унумдорлиги ва самарадорлигини оширишга олиб келади ҳамда тадбиркорлик фаолиятининг замонавий шакллари ва турлари кенгайтишини рағбатлантиради.

**Фойдаланилган адабиёт рўйхати:**

1. Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида) // И.ф.д. дисс. –Самарқанд: СамИСИ, 2017. 25-26-б.
2. Васильев В.А. Создание кластеров малых гостиниц. Повышение их конкурентоспособности / В. А. Васильев // Next Stop. – 2008. – №1.
3. Курмаев Т.Э. Туристские кластеры как инклюзивное рекреационное поле / Т.Э.Курмаев // Проблемы и перспективы развития образования в России. – 2015. – № 37. – С. 177-179.
4. Новичков В.И., Полозков М.Ю. Анализ опыта государственного регулирования туризма в развитых странах //Journal of New Economy. – 2008. – №. 3 (22).– С. 46-49.8.
5. Олланазаров Б.Д. Кластер ёндашуви асосида туристик хизматлар соҳасида инвестицион фаолликни ошириш масаласи // - Т.: “Иқтисодий ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. -№1, январь-февраль, 2019.
6. Пелевина,Н.А. Кластерный подход к обеспечению развития туристско-рекреационной сферы региона / Н. А. Пелевина // Известия Российского государственного педагогического университета имени А. И.Герцена. – 2008. – № 86. – С. 340-344.

**MEHMONXONA BIZNESIDAGI INTEGRATSIYA  
JARAYONLARINI TASHKILIY BOSQICHLARI****Muxitdinov X.S.**

QarMII professori

**Asadova Sarvinoz Baxtiyor qizi**

QarDu Turizm yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Mehmonxona sanoati korxonalarining yuzaga kelishi qadimgi Rim bilan aloqadordir (taxminan er.av. 50-yillar). Rim Imperiyasi yirik bo‘lganligi sababli amaldor va savdogarlar tez-tez tashqariga chiqib to‘rganlar. Natijada ularni joylashtirish uchun doimiy hovli-joy va tavernalar yuzaga kelgan. Rim davlatining asosida qat’iy sinfiy tizimning mavjudligi joy bilan ta’minlash korxonalarini rivojiga ham e’tiborni kuchaytirdi. Xatto davlat amaldorlari yo‘lga o’tlanishdan avval o‘z qo‘l ostidagilari orqali joylashish o‘rnini kelishib olishga odatlandilar. Qadimgi Rimdagi qo‘nib o‘tish manzillari asosiy yo‘l bo‘yida va qishloqlarda joylashgan, faqat qulaylik haqida gap bo‘lishi mumkin emasdi. Rim Imperiyasining qulashi bilan hovli va tavernalar o‘z - o‘zidan inqirozga uchradi. Faqat 4 asrdan so‘nggina,

O‘rta asr davri (500- 1300 y.) boshlangungacha, yangi turda joylashtirish korxonalarini yuzaga kela boshladi.

Bugungi kunda dunyoda 30 mingdan ziyod turli otellar mavjud. Aniqrog‘i, bu ko‘rsatkich “Reed Travel Group” nashriyoti tomonidan chop etilgan “Official Hotel Guide–96” katalogida ko‘rsatilgan. Bu mehmonxonalaridagi umumiy nomerlar soni 12 mln. ni tashkil qiladi. Yevropa mintaqasida nomerlar soni ko‘p. Ikkinchi o‘rinda Amerika va undan so‘ng Sharqiy Osiyo turadi. 1995 yilda AQShning o‘zida 82 ming o‘rinli mehmonxonalar qurib bitirildi. Jadal qurilishlar turistlar ko‘p boradigan joylarda davom etyapti. Bu Janubi – sharqiy Osiyo orollari, masalan, Bali (Indoneziya) va Pxuket (Tailand) dadir. Dunyodagi eng yirik otel Tailandning Pataya shahrida joylashgan “Ambassador City Jomtien” dir. U 5100 nomerli bo‘lib, 40 mt atrofidagi maydonni egallaydi. Jadvalda ko‘rsatilishicha, 20 ta eng yirik otellarning 13 tasi Las – Vegasda joylashgan. Zamonaviy Las-Vegas aloxida yirikligi bilan farqlanadi. Yaqindagina eng yirik deb hisoblangan (masalan, 1515 o‘rinli “Caesuras Palace”) bugun 20 ta eng yirik otellar ro‘yxatiga ham kirmay qoldi. LasVegas – bu umum e’tirof etilgan hordiq sanoatining lideri sanaladi. Shaharda 50 ta kazino bo‘lib, ularning ko‘pi otel xududlarida joylashgan. Ushbu otellardagi apartamentlar o‘lchami va qulayligi jihatidan eng katta va yaxshisidir. Bunda mini-basseynlar, bir nechta yirik teleekranlar, 2 va undan ortiq xonalar, hol va yotoqxonalar, oshxona hamda barlar mavjud. Bunday apartamentlar binoning alohida ajratilgan tomonida joylashtirilgan va xususiy ya’ni atab qo‘yilgan joy (bron qilish) xizmatiga ham ega.

Turizm xizmatlari xizmat ko‘rsatish sohasida alohida mavqega ega va yuqorida ta’kidlanganidek, mamlakatimizda hozirgi paytda turizm faoliyatiga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Mehmonlarga xizmat ko‘rsatish texnologik tashkiliy bosqichlari jarayonlari o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- ❖ mehmonxonaga kirishda mehmonlarni kutib olish;
- ❖ registratsiya (qayd qilish), hujjatlarni rasmiylashtirish va mehmonlarni joylashtirish;
- ❖ mehmonlarga nomerda xizmat ko‘rsatish;
- ❖ mehmonlarning ovqatlanishi chog‘ida xizmat ko‘rsatish;
- ❖ mehmonlarning madaniy talablarini qondirish – ya’ni sport, sog‘lomlashtirish va fitnes-xizmat talablari;
- ❖ jo‘nab ketishini rasmiylashtirish, kuzatib qo‘yish. Shuni ta’kidlash joizki, xizmatlar tayyor, tugatib bo‘lishi mumkin emas.

Ular ijrochi va iste’molchining o‘zaro qalin hamkorligida xizmat ko‘rsatish chog‘ida shakllanadi. Mehmonxona xizmatlarini ishlab chiqarish va iste’mol qilinishi mehmonning mehmonxonaga kelgan paytidan jo‘nab ketilganiga qadar bir



vaqtning o'zida kechadi. Butun mehmonxona sikli davomida mehmon xizmatlarni mehmonxona xodimi faoliyatining natijasi sifatida qabul qiladi.

Turistik destinatsiya (hudud) yagona turistik mahsulot sifatida raqobatbardosh birlik hisoblanib, yagona strategik tijorat birligi sifatida boshqarilishi zarur bo'lmoqda. Turizm xizmatlarini taklif etuvchi turistik hudud sifati ular o'z xizmatlarini qanchalik darajada buyurtmachilar ehtiyojiga moslashtira olishi bilan o'lchanadi. Bozorda yetarlicha mavqega ega bo'lgan turistik hududgina raqobatbardosh bo'la oladi. Yagona raqobatbardosh birlik ko'rinishida umumiy hududning strategik maqsadi raqobatbardoshlikni uzoq muddat ta'minlashidan iboratdir.

Turistik majmua elementlari (mehmonxona, transport korxonolari, umumiy ovqatlanish korxonolari va sh.k.), ularning bozorlari, aholi, atrof-muhit hududning raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadi.

Mehmonxona xizmatlarining raqobatbardoshligini quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha ko'rib chiqishimiz mumkin:

- iqtisodiy - xizmatlarning iste'mol narxi, qiymatida namoyon bo'ladi;
- tashkiliy - xizmatlarning taklif etish sharoitlarini tavsiflaydi;
- tasnifiy - xizmatlarning ma'lum bir turga mansubligini bildiradi;
- me'yoriy - xizmatlarning aniq bir standartlar, qoidalarga muvofiqligini ko'rsatadi;
- konstruktiv - xizmatlarning texnik ustunliklarini namoyish etadi;
- ijtimoiy - xizmatlarning shaxsiy, ijtimoiy guruh va umuman jamiyatning o'ziga xosligiga muvofiqligini ko'rsatadi;
- ergonomik - xizmatlarning inson organizmi va ruhiyati xossalariga muvofiqligini ko'rsatadi.

Bizningcha, mehmonxonalarining raqobatbardoshligi ko'rsatgichlari mehmonxona xizmatlari raqobatbardoshligiga nisbatan kengroq va murakkabroq tushuncha hisoblanadi. Mehmonxonalarining raqobatbardoshligi ko'rib chiqilayotganda nafaqat korxonalar xizmatlarining narxi, assortimenti va sifati, balki xo'jalik faoliyatidagi moliyaviy ahvoli, kadrlar siyosati, marketing strategiyasi, reklama kampaniyasi kabi asosiy yo'nalishlarining samaradorligi ham tahlil qilinib, nisbatan uzoqroq muddatni qamrab oladi va qaysi bozorda solishtirish olib borilayotganligiga bog'liq bo'ladi.

Turizm vazirligi 200 kishidan iborat turizm bo'yicha milliy kengashni boshqaradi. Bu konsultativ organ xizmat ko'rsatish sohalarini birlashtiradi va muhim rol o'ynaydi. Turistik xizmatlarning sifat darajasini oshirish, tashkil etish turizm ministrligining istiqbolli dasturi hisoblanadi, shu asosida turizm sohasini brendga ko'tarish, reklamani ishonchliligini ta'minlash, realizatsiya jarayonini tezlatish turizm salohiyatini belgilab beradi. Xizmat ko'rsatish sifati markazida

bo‘lish uchun bo‘layotgan kurashga ijobiy ta‘sir qilish uchun markening logotipi o‘ylab chiqildi. U “Q” shaklida bo‘lib, “Quality ” “sifat” so‘zining bosh harfidan olingan, markazida Fransiya haritasi joylashtirilgan, sifat markasi tashqi auditorlik 72 tekshiruvlaridan o‘ta olgan va o‘rnatilgan talablarga javob beradigan (ular jami 96 ta) tashkilotlarga beriladi.

Tashkilotlar o‘rtasida milliy turizm rivojiga muhim hissa qo‘shgan tashkilot “Fransiya uyi” hisoblanadi. U 1987 yil turizm ministrligi qoshida ochilgan. “Fransiya uyi” ning bosh ofisi Parijda bo‘lib, dunyoning 28 ta mamlakatida 33ta mintaqaviy bo‘limlari mavjud. Ular Fransiyaning o‘ziga jalb qiluvchi turistik xizmatlarni shakllantirish va shu asosda mamlakatning turistik salohiyatini dunyo bo‘ylab mashhur bo‘lishiga erishdi. Sifat markasi mehmonxonalarga 3 ta xalqaro brend: “ Ubis”, “Merkur”, va “Novotel” kabilar tomonidan belgilanadi, milliy tashkilotlardan esa “Loji deFrans” va Fransiya restoranlar Assotsatsiyasi hisoblanadi. Turizm Fransiyaning siyosiy mintaqaviy ob‘ektlaridan biri hisoblanadi. Turizm taraqqiyoti turli xududlarda farqli ravishda rivojlangan. Bu aloqalarda turizm mintaqalarida faqatgina an‘anaviy turizmni ko‘rsatish emas, balki u iqtisodiy o‘sishning muhim omili, rivojlangan hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratishda ham muhim omil hisoblanadi. Xalqaro markaz va hududlar o‘rtasida kelishuvlar olib boriladi. Bu kelishuvlar Markaz bilan 5 yilda bir marta tuziladi. Fransiya bir necha yo‘nalishda xalqaro aloqalarni rivojlantirmoqda: jumladan, turistik faoliyatni rivojlantirish va tartibga solish, yuqori darajada turistik ta‘lim berish, turizm iqtisodiyoti va Fransiya turistik bozorining oldiga surilishi kabilar. Fransiya butunjahon tashkilotlarida o‘ziga xos o‘ringa ega, ayniqsa BTT va Butun jahon ijtimoiy turizm byurosi (BITB). Fransiya hozirda g‘arbiy Yevropaning va butun jahon mamlakatlari ichida eng taraqqiy topgan davlatlardan biri sanaladi. U tarixan insoniyat sivilizatsiyalarining markazida joylashgan.

Turizm sohasi mamlakatimizda jadallik bilan rivojlanayotgan ayni damda o‘rta va yirik mehmonxonalarga ehtiyoj ko‘paymoqda. Mehmonxonalarda zamonaviy dizayn va xizmatlarni taklif etish bilan bir qatorda milliy madaniyat va xalq amaliy san‘atidan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘lard. Chunki xorijdan tashrif buyurayotgan turistlar mehmon bo‘lib turgan mamlakatning o‘ziga xos bo‘lgan boy milliy va madaniy merosini birinchilardan bo‘lib ko‘rishni va undan bahramand bo‘lishni xohlaydilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aliyeva M.T., Umarjonov A. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti.-T.: Moliya 2005.

2. Amriddinova R.S. Mehmonxona servis xizmati. Ma’ruzalar kursi. – Samarqand.: SamISI, 2008.

3. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. «Формальности в системе туризма Республики Узбекистан» - Т: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2007.

4. <http://www.tourism.uz/>

5. <http://www.tour.uz/>

6. <http://hotels.travel.ru/france/>.

7. [http// www. oktogo.ru](http://www.oktogo.ru)

## AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

**Fayzullayev Maqsud Abdullayevich**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Geografiya kafedrası dotsenti, g.f.f.d. (PhD)

*E-mail: strongwill001@mail.ru*

**Nurmatov Nurbek Ermat o‘g‘li**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Geografiya kafedrası tadqiqotchisi

**Normatov Sunnat Axmadovich**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Geografiya kafedrası tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Maqolada agroturizmning rivojlanish xususiyatlari va qishloq joylarini rivojlantirish imkoniyatlari xorijiy mamlakatlar misolida bayon qilingan. Shuningdek, hududiy jamoat o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan agroturizm o‘rtasidagi munosabatlarga ham e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** turizm, agroturizm, qishloq joylari, turist, infratuzilma.

Agroturizm iqtisodiy va noiqtisodiy xarakterdagi, ham xalqaro, ham milliy miqyosdagi sohalarni birlashtirgan faoliyat sohasidir. Agroturizmning rivojlanishi 1970-yillarda aholining qishloq joylaridan shaharga ommaviy ravishda chiqib ketishini to‘xtatish maqsadida boshlangan. Agroturizm turistik kurort dam olishlariga nisbatan arzon muqobil sifatida paydo bo‘ldi. Agroturizm birinchi navbatda, kichik hududlarda toza landshaftlar saqlanib qolgan sanoati rivojlangan mamlakatlarda keng tarqaldi (AQShda - 4%, G‘arbiy Yevropada - 2-3%).

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, Agroturizmni rivojlantirish agrar sektorning bir qismini ishlab chiqarish tarmog‘idan xizmat ko‘rsatish sohasiga o‘tkazishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy dasturidir. Ta’kidlash joizki, agroturizm doirasida bevosita ishlab chiqarish faoliyati ham amalga oshirilmoqda: turli xalq va



badiiy hunarmandchilikni qayta tiklash va rivojlantirish, an’anaviy hunarmandchilik ishlab chiqarish, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish. Agroturizmga qiziqish butun dunyoda keng tarqalgan. Agroturizmni rivojlantirishning yaxshi misollarini Italiya, Fransiya, Niderlandiya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda ko‘rish mumkin. Italiya Yevropa agroturizmining yetakchisi sifatida tan olingan bo‘lib, yiliga taxminan 350 million dollar foyda oladi.

Agroturizm ham tabiatni asrash vositalari va usullarini topish imkonini beradi. Ko‘pgina mamlakatlarda turizmning ushbu turini rivojlantirish milliy qishloq landshaftlarini muhofaza qilish va rekreatsiya qilishning asosiy yo‘nalishiga aylandi. Shunday qilib, Shveysariyaning alp o‘tloqlarini, Gollandiyaning tegirmonlari va kanallarini, Italiyaning eski bog‘lari va villalarini saqlab qolish imkoniyati yaratildi [3]. Qishloqlarda turizmni rivojlantirish eng qoloq qishloqlar va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish uchun qayta taqsimlash modeli vositasidir. Darhaqiqat, Yevropaning ko‘pgina qishloq joylarida qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishning eng muhim shakli va qishloq jamoasining eng muhim faoliyati bo‘lishni to‘xtatdi [1]. Qishloq turizmining muhim vazifalaridan biri qishloq xo‘jaligining yangi o‘ziga xos tarmog‘ini tashkil etish orqali alohida qishloq aholi punktlarini rivojlantirishga turtki berish, ular aholisining daromadlari darajasini oshirish, qishloqlardan shaharlarga migratsiya oqimini kamaytirishdan iborat. Uning rivojlanishiga faol jamoat arboblari va hududiy jamoat o‘zini o‘zi boshqarish organlari ishtirokchilari yordam berishi mumkin.

Mahalliy tashabbuslarni amalga oshirishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

— faol odamlarni topish, “pastdan” tashabbusni uyg‘otish va tegishli tayyorgarlikni tashkil etish, tadbirlarni birgalikda rejalashtirish va tashkil etish muhim;

— hududlarda qishloq tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslar mavjud, ammo ulardan foydalanish uchun ko‘nikma va bilim kerak;

— “Hukumat – tadbirkorlik – aholi” hamkorligi barqaror natijalarga erishishga yordam beradi;

— qishloq obodonlashtirish yetakchilarini qo‘llab-quvvatlash muhim.

Agroturizmning paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiy sababi o‘rta daromadli shahar aholisining nafaqat yangi sabzavot va mevalarni, go‘sht va sut mahsulotlarini tatib ko‘rishni emas, balki tabiat bilan yolg‘iz dam olish, dehqon oilasi hayoti bilan tanishish, qishloq xo‘jaligi ishlarida bevosita ishtirok etish ehtiyojidir.

G‘arbiy Yevropada 40 millionga yaqin shahar aholisi kurortlardan ko‘ra agroturizmni afzal ko‘rdi. Dehqonlarning asosiy mijozlari bolali oilalardir. Bolalar uy hayvonlari bilan muloqot qilishni va sabzavot, meva va rezavor mevalarni yig‘ishni yaxshi ko‘radilar. Italiya qishloq turizmi bo‘yicha Yevropada birinchi o‘rinda turadi, yiliga o‘rtacha 287 million yevro daromad oladi. Zamonaviy davrda hosildorlik va bilim talab qiladigan qishloq xo‘jaligi jarayoni ish o‘rinlari sonining kamayishiga olib keladi, bu esa qishloqlarda ishsizlikka olib keladi. Bugungi kunda Italiya misolidan foydalangan holda, Yevropa Ittifoqi agroturizmni G‘arbiy Yevropa mamlakatlari qishloq xo‘jaligini saqlab qolish usuli deb biladi.

Italiya agroturizmning tug‘ilgan sanasi 1985 yil 5 dekabrda, mamlakatda milliy iqtisodiyotning ushbu sektorini rivojlantirish bo‘yicha federal qonun qabul qilinganda hisoblanadi. Italiya provinsiyalari orasida Kampaniya, Puglia, Trentino-Alto-Adige, Marche va Kalabriya viloyatlari birinchi bo‘lib innovatsiyani qo‘llashdi (1984 yilda qishloq turizmini rivojlantirish bo‘yicha mintaqaviy qonun bu yerda qabul qilingan). Dastlab, sayyohlarni joylashtirish fermerlarning asosiy bo‘lmagan faoliyati bo‘lib, ularga yirik investitsiyalar talab qilmasdan moliyaviy-iqtisodiy ahvolini biroz mustahkamlash imkonini beradi, deb taxmin qilingan edi. 30-35 yil oldin agroturizm nafaqat arzon, balki unchalik mashhur emas edi. Davriy ehtiyoj agroturizmining tegishli qonunlarini, shu jumladan reklama, marketing, narx siyosati, malakali kadrlar va boshqalarni o‘zgartirishga olib keladi, chunki u ko‘plab qishloq aholisi uchun turizm biznesiga aylandi.

Fransiyada agroturizm qishloq aholisining shaharlarga oqimini to‘xtatishga qaratilgan hukumat siyosatining bir qismiga aylandi. Bundan tashqari, fransuzlar ko‘p asrlar davomida faxrlanib keladigan mamlakat vino va pishloq ishlab chiqarishning keskin qisqarishi tufayli bong urildi. Davlat mablag‘lari hisobidan 50 ta tashlandiq yerlar tiklandi, ular orasida fermer xo‘jaliklari, pishloq zavodlari va vino zavodlari mavjud. Ular uchun egalar yosh turmush qurgan juftliklar orasidan tanlangan. Keyinchalik ma‘lum bo‘lishicha, bu mulklar qishloq turizmi obyektiga aylantirilsa, ular daromadli biznesga aylanadi va natijada ushbu turdagi dam olish juda mashhur bo‘ldi. Hozir Fransiyada 45 mingga yaqin qishloq joylari sayyohlarni qabul qilmoqda. Ayni paytda Fransiya ajoyib taomlar, sharob, pishloq va dengiz mahsulotlarining jahon poytaxti hisoblanadi. Bu eng yaxshi “dunyo durdonalari”ning barchasini sayyohlar fransuz an‘anaviy qishloqlariga, ajoyib saqlanib qolgan o‘rta asr qal‘alariga va cherkovlariga tashrif buyurganlarida tatib ko‘rishlari mumkin.

Germaniyada agroturizmning ommaviy rivojlanishi butun Yevropada bo‘lgani kabi, o‘tgan asrning 70-yillarida, dam olish kunlari tabiatga chiqish mashhur bo‘lgan paytda boshlangan. Biroq, Germaniyada 90-yillarning o‘rtalariga qadar agroturizm faqat uning g‘arbiy qismida mavjud edi. Germaniyaning sharqiy

va g‘arbiy qismlari birlashgandan keyin GDRning sobiq hududida qishloq turizmi rivojlana boshladi. Germaniyada qishloq turizmini rivojlantirish barcha darajalarda qo‘llab-quvvatlanadi: federal, shtat, munitsipal. Shu bilan birga, agroturizm bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish shaklida hamda bilvosita qishloq va qishloq xo‘jaligini, iqtisodiy va kommunal infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha turli dasturlar bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Nemislar Yevropada eng ko‘p sayohat qiladigan xalq bo‘lib, ularning taxminan 34 foizi Germaniyada sayohat qiladi. Sayyohlarning qariyb 13 foizi qishloq joylarda, fermer xo‘jaliklarida, qishloq hovlilarida va qishloq mehmonxonalarida dam oladi. Turistning joylashishiga qarab Germaniyada agroturizm quyidagi turlarga bo‘linadi: fermada dam olish; qishloq hovlisida; vinochilik hovlisida.

Germaniyada agroturizmni rivojlantirishning ko‘plab yondashuvlari mavjud, ammo asosiylari: o‘z-o‘zini aniqlash va o‘z-o‘ziga yordam berish; rivojlanish jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlik; hududlarni rivojlantirish dasturlarini, hududlararo va tarmoqlararo hamkorlikni amalga oshirish orqali turizmni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash. Agroturizmning turistik mahsuloti sifatini nazorat qilish masalalari bilan bir nechta tashkilotlar shug‘ullanadi: Germaniya turistlar ittifoqi, Germaniya qishloq xo‘jaligi jamiyati va davlat va mintaqalararo darajadagi turizm sherikliklari (jamiyatlari). Nemis qishloq xo‘jaligi jamiyati qishloq joylaridagi turar joylarni sertifikatlaydi, muvofiqlik belgilarini beradi va doimiy sifat monitoringini olib boradi, shuningdek, Germaniyada agroturizm uchun axborot va reklama yordamini ko‘rsatadi. Mintaqalararo turizm uyushmalari (sharikliklari) alohida o‘rinni egallaydi, ular odatda bir nechta munitsipal tumanlarni birlashtirib, yanada xilma-xil turistik mahsulotni shakllantirish va ichki turizm bozorida birgalikda reklama qilish ishlarini amalga oshiradi.

Shunday qilib, qishloq joylarining turizm salohiyati vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Qishloqlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-madaniy tadbirlar, mikro, mezo, makro darajadagi loyihalar bugungi kunda qishloqlar rivojiga turtki beradigan harakatlantiruvchi omilga aylanishi mumkin [2]. Agroturizm hududlarni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi, yangi ish o‘rinlari, kichik va o‘rta biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratish vositasidir. Agroturizm qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, mahalliy aholini rivojlantirish siyosatining bir qismi bo‘lib, ya‘ni turizm industriyasining bir qismiga qaraganda kengroq tushuniladi va ko‘proq qishloqlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Qayd etish joizki, agroturizmni rivojlantirish nafaqat turizm industriyasini kengaytirish, balki butun qishloq iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ham amalga oshirilishi lozim. Agroturizmni rivojlantirishdan asosiy maqsad mahalliy aholi turmush sharoitini yaxshilash, aholining o‘zini-o‘zi

boshqarish tizimini takomillashtirish asosida qishloq iqtisodiyotining rivojlanishini rag‘batlantirishdan iborat.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Лёвочкина Н.А. Институциональная среда развития агротуризма (на примере зарубежных стран) // Возможности развития краеведения и туризма Сибирского региона и сопредельных территорий: сборник материалов XVIII Международной научно-практической конференции, посвященной 415-летию г. Томска. – Томск, 2019. – С. 34-38.

2. Лёвочкина Н.А. Социально-культурный EVENT как тренд развития сельской территории и агротуризма // Природное и культурное наследие Урала: материалы IX Всероссийской научно-практической конференции (8 июня 2018 г.) / Челябинский государственный институт культуры. – Челябинск: изд-во ЧГИК, 2018. – С. 236-237.

3. Стасюкова Н. Методические рекомендации по развитию сельского туризма. – Свердловск, 2008. [Электронный ресурс] – Режим доступа // URL: <http://pandia.ru/text/77/196/43360.php>

4. Nurmatov N.E. Economic and geographical factors of regional organization of agriculture and innovative development // International multidisciplinary journal for research & development. Volume 10, issue 12 (2023). P. 439-442.

5. Nurmatov N.E. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan asosiy islohotlarning chorvachilik tarmog‘i rivojlanishiga ta’sirining asosiy xususiyatlari // «Экономика и социум» №2(117)-1 2024. В. 510-517

6. Nurmatov N.E. The main characteristics of the development of the livestock network in Uzbekistan // Proceedings of International Educators Conference Hosted online from Rome, Italy. Date: 25th January, 2024. P. 129-133

7. Nurmatov N.E. The main characteristics of using pastures in the development of an Uzbekistan livestock network // International Conference On Scientific In Research In Natural And Social Sciences Re. February, 5 th, 2024. P. 142-145.

8. Nurmatov N. E. Abdukarimov A. Sh. main directions of the development of the livestock network in the republic of Uzbekistan // Proceedings of International Educators Conference Hosted online from Rome, Italy. Date: 25th May – 2024. P. 271-274.

9. Faizullaev M.A. Theoretical and methodological aspects of the economic geographical study of agriculture and the use of land and water resources // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16, Belgium, 2023. P. 39-42.

10. Faizullaev M.A. Factors of intensive development of agriculture in ensuring food security // **Web of Scientist: International Scientific Research Journal**. Vol. 4 No. 1 (2023) – P. 715-719.

11. Faizullaev M.A. Main characteristics of the formation of a geographic conveyor in agricultural development // **Web of Scientist: International Scientific Research Journal**. Vol. 4 No. 2 (2023). P. 89-92.

12. Faizullaev M.A. Characteristics of agriculture in Uzbekistan in the years of independence // *European science review*. №3-4 – Vienna, 2015. – P. 67-69.

## ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ УЗБЕКИСТАНА: РАЗВИТИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Касимов Ж.Р. Ph.D.,

Нормуродова З. преподаватель  
кафедры «Туризм и маркетинг» КарГУ

**Аннотация.** В статье рассматриваются особенности образовательного туризма в качестве дидактических условий для построения образовательно-познавательных траекторий в рамках повышения квалификации педагогических кадров. А также, проанализировано что в современных условиях в сфере туризма развивается частно-государственное партнерство, демонстрирующее различные формы и модели в разных странах.

**Ключевые слова:** Культурно-исторический туризм, культурное наследие, образовательный туризм, туристический потенциал, повышение профессиональной квалификации, компетенция.

Туристическая деятельность приносит существенный доход в казну государства, а также поддерживает другие экономические отрасли (транспорт, поставку продуктов питания, создание сувенирной продукции и других товаров, строительство), обеспечивая тем самым жителей страны новыми рабочими местами.

Можно сказать, что за последние годы туристический бизнес начал свое стремительное развитие во всех странах мира. Знакомясь с опытом различных зарубежных стран, можно увидеть, что успех развития туристического бизнеса во многом зависит от того, как на государственном уровне воспринимается эта отрасль, и как государственные институты поддерживают данную отрасль. Для того чтобы получать доходы от туристского бизнеса любое цивилизованное государство должно вкладывать значительные средства для исследования своих территорий с целью оценки туристического потенциала. Государственные программы должны



способствовать развитию туристского бизнеса, развитию туристских центров, созданию и развитию необходимой инфраструктуры, а также рекламы и информационного обеспечения.

Развитие международного туризма на фоне совершенствования в Узбекистане малого бизнеса и частного предпринимательства привело к тому, что на практике в международном туристском рынке страны сейчас предлагаются гостиницы разного уровня комфорта по различным ценовым категориям. Каждый год средства массовой информации информируют о новых формах этого сервиса для многочисленных клиентов.

Президент Республики Узбекистан подписал Указ «О мерах по обеспечению ускоренного развития туристической отрасли Республики Узбекистан». Согласно этому указу, туризму придаётся статус стратегического сектора экономики. Основное внимание уделяется превращению его в мощную сферу устойчивого роста экономики государства, эффективному использованию туристского потенциала регионов, повышению влияния туризма на улучшение уровня жизни и достатка населения. Узбекистан имеет огромный потенциал в туристской индустрии. Это свыше 7 тысяч объектов культурного наследия, более 200 из которых расположены в четырех городах-музеях - Хиве, Бухаре, Шахрисабзе и Самарканде. Все они включены в список объектов всемирного наследия ЮНЕСКО. Кроме того, на территории страны расположено 8 заповедников, 2 природных и 1 национальный парк, 6 памятников природы, 11 заказников, более 50 водоохранных зон, которые также являются привлекательными туристическими объектами.

Экспорт посетителей считается самым важным компонентом Travel&tourism. В 2017 году Узбекистан посетили 1 857 000 международных туристов, показывая рост в 4.6%. Прогноз на 2027 год составляет 3 903 000. Капитальные инвестиции в 2016 году составили 1 008,0 млрд. сум. В 2017 году показатель вырос на 7.4%, прогнозы на 2027 год составили 1 933,8 млрд. сум. Поскольку туризм стимулирует развитие инфраструктуры страны, имеет сильное положительное влияние и помогает диверсифицировать экономику, поддерживает локальную культуру и других структур туристской инфраструктуры, путешествие и туризм считаются ведущей экспортной индустрией по всему миру, для стран Средней Азии в том числе. Самые древние города, через которые прошел Великий Шелковый Путь, расположены именно на сегодняшней территории Узбекистана. Города как Бухара, Самарканд, Хива, Шахрисабз (древний Кеш), Маргелан сегодня являются главными направлениями туристского потока. Создание новых туристских направлений, таких как паломнический туризм, создание

«золотого кольца», включающего в себя туристские города Ташкент, Самарканд, Бухара, Хива и Фергана, позволят повысить туристическую привлекательность страны.

Развитию туризма в Узбекистане уделяется огромное внимание. В частности, в целях создания удобств прибывающим иностранным туристам кардинально упрощены визовые и регистрационные процессы. Упрощен порядок временной регистрации иностранных граждан на территории республики, который полностью переведен в электронный формат E-mehmon. Данная система предоставляет средства размещения, лечебным учреждениям, туристическим компаниям, гостевым домам и владельцам частных квартир право регистрации иностранных граждан. Самостоятельно путешествующие по стране могут сделать это через интернет и мобильные приложения.

Наряду с традиционным культурно-историческим туризмом, успешно развиваются такие новые для Узбекистана виды туризма, как паломнический, экологический, познавательный, этнографический, гастрономический, спортивный, лечебно-оздоровительный, сельский, промышленный, деловой и иные виды туризма.

Турпотенциал Узбекистана уже достаточно известен за рубежом. Этому во многом способствует народная дипломатия и эффективная реклама с использованием современных технологий.

Внимание потенциальных иностранных туристов привлекают культурные мероприятия, проводимые в стране, которые знакомят с историей и традициями узбекского народа, с его самобытной культурой, ремеслами и искусством. Среди таких мероприятий ставший традиционным фестиваль «Шелк и специи», проводимый в Бухаре, международный музыкальный фестиваль «Шарк тароналари», организуемый в Самарканде. Большую популярность завоевывают такие международные мероприятия, как Международный форум искусства макама в Шахрисабзе, форум зиёратуризма в Бухаре, спортивное соревнование «Игры богатырей» в Хиве, Фестиваль электронной музыки в Ташкенте, Туристическая ярмарка стран СНГ в Самарканде и другие.

В результате глобального кризиса, наступившего из-за пандемии коронавируса, туризм стал одной из самых пострадавших отраслей. Но несмотря на это, в 2020 году Узбекистан в общей сложности посетили 1 миллион 504 тысячи иностранных туристов. При этом оказаны туристические услуги на 261 млн долларов.

Получил значительное развитие и внутренний туризм. Были организованы поездки внутри страны для 1,8 миллиона человек, в текущем же году ожидается резкое увеличение этого количества до 7,5 млн туристов.

На 2021 год разработаны конкретные планы по привлечению 1,7 миллиона туристов из-за рубежа. Ожидается экспорт туристических услуг на 370 млн долларов.

Узбекистан обошел издержки пандемии. Его огромному потенциалу в туристической области вполне по силам решение поставленных больших задач по наращиванию потока туристов. В современных условиях в сфере туризма развивается частно-государственное партнерство, демонстрирующее различные формы и модели в разных странах. То есть с учетом активизации процессов глобализации, ужесточения конкуренции, такого рода партнерство является необходимым для продвижения национального туристского продукта на международный рынок, разработки маркетингового плана, осуществления рекламной деятельности, совместного финансирования туристских проектов.

Экономики некоторых стран целиком держатся на туризме, так что неудивительно, что сюда приходят новые технологии. Очень упростился самостоятельный туризм. Современные приложения, агрегаторы транспортных компаний, системы бронирования номеров в отелях и автомобилей позволяют организовать и оплатить свое путешествие прямо на ходу со смартфона. Не меньшее значение имеют современные средства связи — мобильная, спутниковая, GPS, для обеспечения безопасности путешествий. А современные материалы позволяют изготовить туристическое оборудование более прочное, надежное и функциональное, чем это было доступно еще недавно.

Обобщая изложенное, объективно оценивая ситуацию, следует отметить, что туризм в Узбекистане претерпевает качественные изменения и имеет большие перспективы для развития об этом свидетельствуют международные туристические выставки и конференции. Для дальнейшего развития туризма, на наш взгляд, целесообразно выполнить следующие рекомендации: Следует, в первую очередь, разработать и подготовить пакет предложений по совершенствованию законодательства по развитию туризма в Узбекистане. Причем концепция нового законопроекта должна основываться на формировании «туристического продукта», который является центральным и определяющим понятием туристической инфраструктуры, включая формирование пакета туристических услуг не только основными, но и дополнительными и сопутствующими туристическими услугами. Пришло время совершенствовать

институциональный механизм государственных органов, уполномоченных регулировать отношения в сфере туризма, главной функцией которых должен стать определение государственной стратегии в области туризма в виде Национальной программы дальнейшего развития туризма, проведение государственной политики в области туризма и контроль всех структур за качественным предоставлением услуг в сфере туризма. Рассмотреть вопрос продажи в частный сектор гостинично-хозяйственный комплекс «Узбектуризма». Необходимо акцентировать внимание на международную составляющую туризма разработать комплекс мер по соответствию туристической инфраструктуры всем международным требованиям в области туризма.

В заключении необходимо отметить, что в целом, на всей территории республики осуществляются работы по созданию туристической инфраструктуры, способной предоставлять услуги на мировом уровне, а также внедрению международных стандартов и норм, регламентирующих её деятельность, проводится инвентаризация дорожно-транспортной и инженерно-коммуникационной сетей, субъектов обслуживания и логистики, историко-культурных и археологических памятников. Высказанные суждения подчёркивают особое значение необходимости правильного выбора стратегического пути при демонстрации внутреннего и внешнего потенциала нашей республики. Этот путь послужит фундаментом великого будущего, укреплению позиций нашей страны в мировом сообществе.

Туристский рынок Узбекистана в целом спокойно реагирует на процессы турбулентности в мировой экономике, а его развитие способствует притоку иностранной валюты. Сегодня Узбекистан находится на качественно новом этапе развития туризма, в нашей стране проводится широкомасштабная работа по совершенствованию туристской инфраструктуры и широкой популяризации данной отрасли за рубежом.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Нарзиев М., Ермаков А., Бабакулов А.»Современное состояние и тенденции развития индустрии туризма в Узбекистане»
- 2.Firdavs Saliev «Economic Advancement of Tourism Industry in Uzbekistan»/ June 2015
- 3.Саидов, А. А. Индустрия туризма в Узбекистане: проблемы и тенденции развития / Молодой ученый. — 2019. — № 23 (261). — С. 302-304.
- 4.Тайгибова Т.Т. Государственное регулирование развития въездного туризма // Молодой ученый. - 2012. - №1. Т.1. - С. 153-157.
- 5.Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: учебник, 3-е издание.- Минск: Новое знание, 2002. - С.321.

6.Noë F., Uysal M., Magnini V. Tourist Customer Service Satisfaction: An Encounter Approach. - Oxon: Routledge Advances in Tourism, 2010. - 379p.

## TURIZM RESURLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI

**F.B.Qanoatova**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti,  
falsafa fanlari nomzodi, dosent.

**Annotasiya** Ushbu maqolada mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridan O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari, mamlakatda ayollar tadbirkorligi, Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik xotin - qizlarning ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi ishtiroki, ularning faoliyati misollar yordamida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, tadbirkor ayol, "Hunarmand" uyushmasi, jismoniy shaxs, huquqiy meyorlar, iqtisodiy imkoniyatlar, ishbilarmon ayollarni rag'batlantirish, mikrokredit.

**Abstract:** In this article, the main directions of structural changes implemented in the economy of Uzbekistan since the first days of independence, women's entrepreneurship in the country, the participation of entrepreneurial women and girls in the implementation of social, political and economic reforms in the Kashkadarya region, their activities are described with the help of examples.

**Key words:** entrepreneurship, business woman, "Hunarmand" association, individual, legal standards, economic opportunities, encouragement of business women, microcredit.

**Kirish.** Mamlakatimiz prezidentining 26.04.2023 yildagi PQ-135 sonli "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahadd va horijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroridan kelib chiqib turizm resurslarini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab - quvvatlash alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda ayollar tadbirkorligining salmog'ini ortib borayotganligi ularning ko'p vazifali qobiliyatlarini namoyish etishining natijasidir. Tadbirkor ayollar, albatta, o'zlarining kichik va o'rta korxonalarini samarali boshlashlari, tashkil etishlari, rejalashtirishlari va faoliyat yuritishlari mumkin. Tadbirkor ayollar



sonining ko'payishi iqtisodiy va ijtimoiy tenglikni rag'batlantirishi mumkin, bu esa jismoniy shaxslarning o'zini o'zi boshqarishini osonlashtiradi va qimmatli inson kapitalidan foydalanishni yaxshilaydi. –

- Ayollik xususiyatlari va iste'dodlarini tadbirkorlik uchun katta afzalliklarga ega bo'lgan kuch manbalari sifatida ko'rish mumkin. Kasbiy malakasi yuqori bo'lmagan va iqtisodiy darajasi past bo'lgan ayollar uchun tadbirkorlik pul topish va oila daromadiga hissa qo'shish vositasidir.

**Adabiyotlar tahlili.** Keyingi yillarda ilmiy adabiyotlarida tadbirkorlik hodisasi-ning chet el talqinlarining juda ko'p tavsiflari, ularning ma'nosini batafsil tavsiflari A. Smit, K. Marks, I. Shumpeter, F. Hayek, V. Sombart, M. Websr kabi mashhur mualliflar tomonidan ham berilgan[3;33]. Ammo, afsuski, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha hali ko'zlangan darajaga erishilgani yo'q. Mavzu tarixshunosligi-ning ikkinchi guruhida xorijda nashr etilgan adabiyotlar tahlil qilindi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanti-rish hamda sohada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish masalalari xorijlik olimlar tomonidan ma'lum yondashuvlar asosida o'rganib kelinayotganligini ta'kidlash o'rinli. Bular Boris Rumer, G. Kartis, Rodjer D. Kangas, M.Onita, A. Tabishaliyeva, YE. Kalyujnova, A. Akimov, R. Xizrich, M. Pipers, S.V Jukov, O.B Reznikova, T. A Fink, V. M. A Kusainov, A. N Levushkinlarning tadqiqotlari [3;33]. Tarixshunoslik materiallarining tahliliga ko'ra, iqtisodiy mavzuda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar ham e'tiborga molikdir. Ularda mustaqillik yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik masalalarining iqtisodiy jihatlari, ba'zi o'rinlarda sohaning ayrim tarixiy xususiyatlari bayon qilingan. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning tarixiy rivojlanish tendensiyalari, mazkur yo'nalishda aholi bandligini ta'minlash, xususiy mulk huquqini himoya qilish hamda uning ustuvor yo'nalishlarini yanada rag'batlantirish masalalari bayon qilingan. Bu borada R. Abdullayev, Sh. Raxmatullayev, M. Raximov, E. Nuriddinov, Sh. Ziyomov, Tursunov I.E., F. Rashidova, A. Xalliyev, A. Golovanov, D. G'ulomova, T. Mo'minov, N. Oblomurodov, A. Hazratqulov, Q. Usmonov, M. Sodiqov, V.Ishquvatovlarning o'z mavzulari doirasidagi tadqiqotlari, chop etgan kitoblari birmuncha salmoqlidir[3;33].

**Metodologiya.** Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda ham bozor iqtisodiyoti sharoitida ayollarni ishlab chiqarish sohalarida jalb etish borasida mamlakat miqyosida katta ishlar boshlanib yuborildi. Respublikaning barcha vilotlari qatori Qashqadaryoda ham xotin - qizlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ishbilarmon ayollar faoliyatini qo'llab - quvvatlash, xotin - qizlar o'rtasida mulkdorlar sinfini shakllantirishga dolzarb masala sifatida qaraldi. Masalan, 1995 yillar davomida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanisga kirishgan xotin - qizlar sonini osishi dinamikasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, Qashqadaryo

viloyatida 1573 nafarni tashkil etgan bo‘lsa 1996 yilga kelib bu ko‘rsatkich ancha oshganligini kuzatish mumkin, ya‘ni Qashqadaryo 2019 nafarga etdi [7;3-4]. E‘tiborli tomoni shundaki viloyatda bir yil mobaynida tadbirkor ayollar soni 446 nafarga, oshgan [7;3-4]. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab viloyatda Gulchehra Pirimqulova, Nazira Shodmonovalar tadbirkorlikning xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan edilar [7;3].

Mebelsozlikda ish boshlagan tadbirkor Salomat Kamolovanning “Qarshimebel” jamoasi hozirgi kunlarda ham faoliyatini hilma - xil zamonaviy o‘quv jigozlarini ishlab chiqarish bilan davom ettirib kelmoqda. Shuningdek, Respublika Prezidenti sovriniga sazovor bo‘lgan Qarshi tumanlik hunarmand Xumora Bekmurodova va Shohida Tursunovalar bugungi kunda o‘z hunarlarini yoshlarga o‘rgatib kelmoqdalar [7;3-4]. Bu borada “Hunarmand” uyushmasining Shahrisabz hududi rahbari Gulnora Odilovanning olib borayotgan ishlari tahsinga loyiqdir. Birgina 2023 yilning ozida 50 dan ortiq xotin-qizlar yushmada hunar o‘rganib, ish bilan ta‘minlandi. "Hunarmand" yushmasimasi tashabbusi bilan “ustoz - shogird” an‘anasi asosida hududdagi 30 dan ortiq hunarmandlarga 300 nafar shogirdlar birlashtirilgan [7;3-4]. Imkoniyatlar samarasi sifatida, ayollar tomonidan tashkil etilgan korxonalar 1997 yilga kelib Qashqadaryo viloyatida 53 tani, shuningdek, xorijiy investitsiyalar asosida faoliyati yo‘lga qo‘yilgan korxonalar soni Qashqadaryo viloyatida 37 tani tashkil etdi [7;133]. Bugungi kunda xotin - qizlar tadbirkorlikda rasmiy ro‘yxatdan o‘tgach e‘tirof etilsa - da, aslida ularning soni yuz minglab, chunki o‘zbek xonadonlariga kirganda qo‘lda to‘qilgan gilamlar, qo‘lda tayyorlangan uy jihozlarini ko‘rish mumkin. Ayniqsa Qashqadaryo hududida ishsiz deb e‘tirof etilgan aksariyat ayollar ham nimadir yaratadi. Masalan, gilam to‘qiydi, ko‘rpa - to‘shak, ashtachilik, tandir yasash, savat to‘qish, sut-qatig‘ni qayta ishlab ro‘zg‘ori uchun moddiy boylik yaratadi. O‘zbekistonda hunarmandlarning huquqlarini himoya qilish, qulay ish sharoitlarini yaratish maqsadida ko‘plab chora - tadbirlar amalga oshirildi. Bunday samarali ishlar natijasida mamlakatda tadbirkorlik subyektlarining ko‘payishi, turli mahsulotlarni ishlab chiqarishga bo‘lgan talabning yildan - yilga oshishi tadbirkorlar-ning hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga bo‘lgan rag‘batini kuchaytirdi. Tadbirkorlik sohasida hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda va turli yo‘nalishlarini rivojlantirishda yangi an‘analar bilan boyitish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31 martdagi PF-1741-sonli Farmoni asosida 1997 yil 4 iyunda “Hunarmand” uyushmasi tashkil etildi. Respublika bo‘yicha uyushmaning 13 ta boshqarma, 153 ta hududiy bo‘limi faoliyat ko‘rsatdi [1]. 1998 yilga kelib Qashqadaryo viloyatining shahar, tuman va qishloqlarida xususiy va kichik korxonalar negizida hissadorlik jamiyatlarini tashkil etgan ayollar safi anchayin kengaydi. Jumladan, Feruza

Xudoyqulova (Shahrisabz tumani), Zaynab Gulbayeva (Qarshi shahri), Go‘zal Sharopova (G‘uzor tumani), Raqiba Shavliyevalar shular jumlasidandir[7;52]. Iqtisodiy sohada xotin-qizlarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida vohalarda muhim vazifalarga e‘tibor qaratildi.

Xotin-qizlar tomonidan kichik va o‘rta, qo‘shma korxonalar tashkil etish va ularga ko‘maklashish, ikkinchidan, hududlarda tadbirkor va ishbilarmon ayollar safini oshirish, uchinchidan, xotinqizlar uchun imtiyozli kreditlar berish hamda ularning miqdorini ko‘paytirish, to‘rtinchidan, ishbilarmon ayollarni rag‘batlantirish, ularni xususiylashtirish jarayonidagi faol ishtirokini ta‘minlash kabi muhim vazifalar shular jumlasidandir[6]. Respublikaning boshqa viloyatlari singari Qashqadaryo viloyatida ham tadbirkorlik ishlari “Tadbirkor ayol” uyushmasi bilan hamkorlikda boshlangan. Jumladan, bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda 1994 yilda Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanida X.Bekmurodova tomonidan “Xumor” fermer xo‘jaligi, N.Xudoyqulova tomonidan esa “Ulug‘bek” nomli shirkat xo‘jaligi tashkil etildi[7;28]. Mamlakatda tadbirkorlik subyektlarini mikroreditlashga oid meyoriy-huquqiy asos yaratilgani tadbirkor ayollar faoliyatini rivojlantirish uchun zarur moliyaviy manbalarni ajratishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Respublikada tadbirkorlar uchun ajratilgan kreditlar miqdorining yildan-yilga oshirilishi bilan birga imtiyozli kreditlar ajratildi. Bu tadbirkorning biznes loyihasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Berilayotgan sarmoyalar asosan maishiy xizmat ishlarini rivojlantirish, tikuvchilik sexlarini tashkil etish, qandolat va shirinliklarni tayyorlash sexlarini ishga tushurish, jamoat ovqatlanish shaxobchalarining ochilishiga qaratildi. Biznes fond tomonidan 2000 yilda xotin-qizlar orasida shaxsiy tadbirkorlikni qo‘llabquvvatlash uchun 51 nafar tadbirkor ayolga 19 109 ming so‘m miqdorida kredit ajratildi[7;3]. Natijada 2002 oktabrgacha bo‘lgan muddatda sanoat sohasi, qishloq xo‘jaligi, maishiy xizmat va boshqalarda jami 5400 tadbirkor ayol o‘z biznesini rivojlantirdi[7;30]. 2002 yil Qashqadaryoda o‘z biznesiga ega ayollar birin-ketin namoyon bo‘la boshladi, lekin aksariyat ayollar o‘z tadbirkorligini boshlash davrida bir necha muammolarga duch kelgan. Masalan, 2002 yilda 80 ta tadbirkor ayol ishchi guruhlariga muammolar bilan murojaat qilgan. Ayollarning aksariyati yangi qonunlarni bilmasligi, ro‘yxatga olish bo‘limlarida tadbirkor ayollarga to‘g‘ri maslahatlar ko‘rsatilmaganligi, puxta biznes rejasiga ega emasligi, imtiyozli kredit berish uchun resurs etishmasligi va bank bilan bog‘liq muammolar bilan murojaat etishgan. Natijada, tadbirkorlikni boshlamoqchi bo‘lgan xotin-qizlarning murojaatlari asosida 80 tadan 22 nafar ayolga kredit loyihasi amalga oshirildi, 17 nafar tadbirkor ayolga “Biznes fond” tomonidan “Boshlang‘ich sarmoya olib berilgan”, 5 ta tadbirkor ayolga Mehnat bandligi tomonidan imtiyozli kredit olib berildi[6;15]. Shunday ayollardan Baraka

Po‘latova (Kasbi tumanidan), Muqaddas Rahimova (Qamashi tumani), Mariyam Eshqulova (Nishon tumani) kabilardir. O‘zbekiston savdo-sanoat palatasiga a‘zo bo‘lgan tadbirkorlarni Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari kesimida tahlil etganda Qashqadaryoda 494 nafar (27,4 %)ini ayollar tashkil etdi [7;127]. Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xotin-qizlar uchun banklar tomonidan ajratilgan kreditlar miqdori yildan - yilga oshib boranligini quyidagi jadvalda korish mumkin[7;51].

Yillar	2005	2006	2007	2010	2011	2012	2013	2014
kredit miqdori	721,5 mln	1597,1 mln	3884,9 mln	11,4 mlrd	16,2 mlrd	22,0 mlrd	31,5 mlrd	46,1 mlrd

Amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birga viloyatda xotin-qizlar bilan ishlash borasida bir qator kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yildi. Masalan, 2004 - 2005 yillarda tijorat banklari va boshqa mutassaddilarning sovuqqonlik munosabati tufayli tadbirkorlik bilan band bo‘lgan xotin-qizlarga tijorat banklari tomonidan etarli darajada kredit mablag‘lari ajratilmadi. 2012 yil 10 avgustdan 2013 yil 28 fevralgacha o‘tkazilishi belgilangan loyiha BMTning Unwomen (ayollar tuzulmasi) hamkorligida Qarshi tumanida alohida “Mikrokreditbank” moliyaviy ko‘magida qator ishlar amalga oshirildi[7;133]. Shuningdek, tadbirkor ayollarga boshlang‘ich sarmoyani shakllantirish uchun mikrokreditlar olishida ko‘maklashildi. Masalan, 2013 yilda 20 mlrd. so‘m imtiyozli kredit mablag‘lari ajratildi. 2013 yilda 6000 nafar tadbirkor ayollar faoliyat ko‘rsatdi, shundan 23 nafar ayol ta‘lim sohasida, 43 nafar ayol tibbiyot sohasida, 713 nafar ayol ishlab chiqarishda, 1161 nafar ayol xizmat ko‘rsatishda, 3350 - 553 - nafari savdo sohasida va 660 nafari boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatdi. 12400 nafar xotin-qizlar turli hunarlarga o‘rgatildi[7;133].

Qashqadaryo viloyatida ayollar uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar to‘g‘risida ma‘lumotlar jadval asosida quyidagicha o‘rganildi.

Tuman va shahar	2015 yilda	2016 yilda
O‘sh (mln.)	13035	17430
Qarshi shahri	4395	3926
Qarshi tumani	5119	1193
Koson tumani	3279	4473
1194 Kasbi tumani	2714	3281
567 Mirishkor tumani	1747	2293
546 Dehqonobod tumani	1727	2197
470 G‘uzor tumani	4732	5692
960 Qamashi tumani	3029	4619
1590 Yakkabog‘ tumani	3479	4905
1426 Chiroqchi tumani	3543	4630
1087 Shahrisabz tumani	7124	9148
2024 Muborak tumani	4550	5722
1172 Kitob tumani	3654	5110
1456 Nishon tumani	3450	4289
839 JAMI	59989	78908
18919 Demak,	2015 yilda	Qashqadaryo viloyatida

xotin-qizlar uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar miqdori 59,989 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilda bu 78,908 mln. so‘mdan iborat bo‘ldi. 2015 yilning birinchi choragida “Imkon ekspress invest” mikrokredit tashkiloti tomonidan 160 nafar xotin - qizlarga jami 220 000 000 (ikki yuz yigirma million) so‘m miqdorida kreditlar berildi[4]. Davlat tomonidan ajratilgan imtiyozli kreditlarning berilishi ijobiy natijalarni ko‘rsatdi. Qashqadaryo viloyatida 2020 yil, jami xotin-qizlar 1622500 nafarni tashkil etdi. Shundan rahbar xotin-qizlar 2928 (0,18%) nafarni



tashkil etdi. Ishlab chiqarish sohasida 11 nafar, tadbirkor markazlarida 11 nafar, savdo sohasida 657 nafar xotin-qizlar rahbarlik qildi[6]. Ayollarni davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar, sharoitlarga tadbirkorga aylantirmaydi. Ularning safini ko‘paytirish uchun, avvalambor huquqiy va iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lish muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadbirkorlikda firmalarga egalik qilayotgan xotin - qizlar ulushi Qashqadaryoda 2018 yil 19,3%, 2019 yil 20,9%, ya‘ni 1,6% o‘sganini, 2020 yil 22,7% ni, 2021 yil 33,7% ni tashkil etgan bo‘lsa, unda 11,0% oshganini ko‘rsatdi[13]. Bundan ko‘rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyatida firmalarda tadbirkorlikni yuritayotgan ayollar ulushi yildan - yilga o‘shgan. Islohotlar samarasi o‘laroq, xotin - qizlar bandligiga alohida e‘tibor berildi. Ishsizlik darajasini qisqartirish maqsadida qabul qilingan bandlikka ko‘maklashuvchi Davlat dasturlari bajarilishi va ish o‘rinlari yaratilishi bo‘yicha quyidagilarga e‘tibor qaratildi: – qisqartirilgan xodimlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilmasdan malakasini o‘zgartirish asosida ishsizlikning oldini olish kabi muhim bandlar kiritildi[7;40]. Xotin - qizlarni ish bilan band etishda hududiy dasturlarning bajarilishini ta‘minlash maqsadida quyidagi vazifalar qo‘yildi: qishloq xotin-qizlarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlash, ayollar bandligi masalasini hal etish va mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish; qishloq joylarining engil sanoat korxonalarida pudratchilar asosida kasanachilikni rivojlantirish va imtiyozli kreditlar ajratish; oilaviy hunarmand bo‘lgan oilalar ishtirokida kasb - hunar yarmarkasi tashkil etish; chekka hududlarda, ayniqsa chegara hududlardagi ishsiz ayollarni ro‘yxatga olish, tahlil qilish, ularni ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish kabilar shular jumlasidandir. Bu vazifalarni amalga oshirish ishlari bevosita tadbirkor ayollar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Xotin-qizlar bandligini ta‘minlash, ularni tadbirkorlikka, hunarmandchilikka jalb etish maqsadida 2019 yil davomida xotin - qizlar va oilani qo‘llab - quvvatlash jamoat fondi mablag‘laridan xotin - qizlarga imtiyozli kredit berish tizimi yaratilib, viloyatga 11,25 mlrd so‘m kredit yo‘naltirildi. Shuningdek, Ustoz - shogird an‘analari asosida 860 ta hunarmandchilik va 623 ta kasanachilik asosida ish o‘rinlari yaratildi[13]. Qashqadaryo viloyati ishbilarmon ayollari tomonidan yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha tinimsiz izlanishlar olib borildi. Viloyatda Shahrisabzlik tadbirkor ayol Yulduz Mamadiyorova o‘z faoliyatini 1998 yil “Tadbirkor ayol” uyushmasiga a‘zo bo‘lishdan boshlan edi. U 1999 yil Fransiyaning Monpelye shahrida - 554 - malaka oshirdi. 2003 yilda Xorijiy tillarni o‘rganish markazini ochib, undan kelgan daromad hisobidan “Yembroyderi group”, ya‘ni iroqi kashtachilik guruhini tashkil etdi. 2004 yil Amerikaning Vuster (angl. Worcester) shahrida “Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish” mavzusida e‘lon qilingan konkursda ishtirok etib, u yerda 1 oy o‘qib qaytgach o‘zining yangi



biznes loyihasini ishlab chiqdi. O'z faoliyatini 3 nafar ishchi bilan boshlagan tadbirkor, keyinchalik ularning sonini 50 nafarga yetkazdi[6]. Yosh tadbirkorlar Kamola Qodirova 2008 yil yosh tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan “Yosh tadbirkorlar maktabi” tanlovining respublika bosqich g'olibi va grant sovrindori bo'ldi. U keyingi yillarda ham o'z izlanishlarini davom ettirib, ma'lum yutuqlarga erishdi. 2010 yil “Fond Forum” tomonidan o'z ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun grant bilan taqdirlandi. K.Qodirova “Ko'hinur Baraka Kafolat” MCHJ raisi, o'z ishlab chiqarish faoliyatiga ega tadbirkor ayol hisoblanadi. Tadbirkor tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar mahalliy va chet el bozorlari, ko'rgazmalar, forum hamda elektron savdolarda sotuvda quyildi[16].

O'zbekistonda tadbirkorlikni turli turlarini rivojlantirish, shuningdek, faol tadbirkorlarni innovatsion g'oyalar bilan qo'llab-quvvatlash maqsadida 2011–2018 yillar Davlat dasturida muhim vazifalar belgilab qo'yildi. Bu tadbirlar xotin-qizlar o'rtasida xususiy tadbirkorlikning yanada rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi. Ishlari diqqatga sazovor tadbirkorlardan yana biri Chiroqchi tumanida o'zining tadbirkorlik faoliyatini keng yo'lga qo'ygan Saltanat Qo'ldoshevadir. U o'z qishlog'idagi bir necha xotin - qizlarni ish bilan ta'minlagan ishbilarmon ayollardan biri hisoblanadi. U faoliyatini jun mahsulotlaridan tayyorlangan buyumlar, asosan gilam to'qib sotish bilan shug'ullandi. Tadbirkor Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi turistik kompaniyalar bilan hamkorlikda sayyohlarga mahsulotlarni sotishni yo'lga qo'ydi[11]. 2019 yil AQSH ning Filadelfiya shahrida shahrisabzlik hunarmand Gulnora Odilovanning “Gulnor LLC” savdo uyi o'z faoliyatini boshladi. Bundan ko'zlangan maqsad okeanortiga milliy to'qimachilik mahsulotlari eksportini tizimli yo'lga qo'yish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'ldi. Shu o'rinda aytish kerakki, “Gulnor” brendi ostida 20 ming dollarlik tovarlar sotildi. 50 ming dollarlik kelishuvlarga erishildi. Amerika kompaniyalari o'zbek milliy mahsulotlariga qiziqish bildirib, sotib olish hajmlarini keskin oshirishga tayyorligini bildirdi. 2020 yil yanvar oyida mo'ljallangan tadbirda ishtirok etish bo'yicha shartnoma imzoladi[12].

**Xulosa** qilib aytganda, o'rganilayotgan davrda viloyatda ishbilarmon tadbirkor ayollar faoliyati rivojlanib, amaliy natijalarga erishilganligi kuzatildi. Mamlakatda ayollarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ularning erkinligi, moddiy ahvolini yaxshilash bo'yicha ko'plab samarali ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida xotin-qizlarning bandligi, yaxshi mehnat sharoitlari ta'minlandi. Ishlab chiqarish salohiyatining ortishi mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutib kelmoqda. Tadbirkor ayollar - bu shaxsiy ehtiyojlarini qondirish va iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lish uchun qiyin rolni qabul qiladigan shaxs. Jamiyatda tadbirkorlarning favqulodda vaziyatlari uchun mas'ul bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy, diniy, madaniy va boshqa omillar mavjud. Tadbirkor ayollar oilaviy

biznesda yoki sheriklikda asosiy bo'lgan yoki u ishlaydigan jamoat kompaniyasining aktsiyadori bo'lgan kishiga bitta ayol biznesini boshlagan kishiga teng ravishda murojaat qilishadi.

### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 4 июлдаги “Хунарманд” халқ хунармандлари уюшмасини ташкил этиш ва унинг фаолияти масалалари тўғрисида”ги 282-сонли Қарори // <https://lex.uz/docs/540056>
2. Inomova S. E'zozli ayol iqboli: davr – jamiyat – shaxs. – T.: “O'qituvchi”, 2005. – B.28.
3. Qanoatova Feruza O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tarixi (1991– 2021 yy.).Monografiya. – Qarshi, Intellect.2023, 33b.
4. O'zbekiston ayollari va erkaklari statistik to'plam. 2000-2005.-T.,2007 .127 b.
5. “Tadbirkor ayol” O'zbekiston Ishbilarmon Ayollar Assotsiatsiyasi Qashqadaryo viloyati bo'limi joriy arxivi ma'lumotlari hamda Qashqadaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 2016 yilgi hisobot papkasi ma'lumotlari asosida shakllantirildi.
6. Qashqadaryo viloyat hokimligi joriy arxivi. 2019-2020 yillar hisobot papkasidan
7. QVHA, 829-fond, 15-ro'yxat, 66-ish, 3 - 4 varaqlar.
8. O'zMA, M-37 fond, 1-ro'yxat, 2559-ish, 133-varaq.
9. Shahrisabz hunarmand mikromarkazi - <https://oz.sputniknews.uz>
10. Qashqadaryo viloyat hokimligining 2004 yilgi hisobot papkasidan.
11. Qashqadaryo viloyat “Tadbirkor ayol” uyushmasining 2014 yil uchun tayyorlangan hisoboti papkasidan.
12. AQSH da O'zbekistonlik hunarmandning savdo uyi ochildi // “Xalq so'zi”, 2019 yil 24 avgust.
13. Sayqal topayotgan hunarlar // “Qashqadaryo” gazetasi, 2013 yil 5 iyul.
14. O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi. Gender statistikasi. <https://gender.stat.uz/>
15. Kashtaning Shahrisabzlik usta – farangi // “Tadbirkor ayol” iqtisodiy-ma'rifiy jurnal, 2016 yil 1-son.
16. "Ko'hinur Baraka Kafolat" mas'uliyati cheklangan jamiyati.- <https://allcompanies.by>

## O'ZBEKISTONDA TURIZMNI SHAKLLANTIRISHNING GEOGRAFIK JIHALARI

Usmanova Roxatjon

Qarshi davlat universiteti *g.f.n. dots.*

**Safarov Isoq Bozor o'g'li**

*Geografiya kafedrası o'qituvchisi*

Qarshi davlat universiteti

[safarovisoq@gmail.com](mailto:safarovisoq@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Maqolada mamlakatning turizm ob'ekti sifatidagi ba'zi imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. O'zbekistonda xalqaro (ziyosat, tog', yekologik va b. ) turizm turlarini tashkil yetish masalalari yoritilgan. Shuningdek, turizmni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *turizm, ziyosat turizmi, tog' turizmi, yekologik turizm, tarixiy turizm, sanatoriy, kurort, mineral suvi, balchiq.*

**Kirish.** Jahon mamlakatlari mavjud tabiiy imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida xalqaro turizmga katta e'tibor qaratmoqda. Turizm dunyodagi ko'pgina davlatlar iqtisodiyotining muhim daromad manbaiga aylanib ulgurdi. Turistik resurslaridan samarali foydalanish va eng avvalo, rivojlangan turistik industriyani hamda dam olishni tashkil etish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolarini yechishda muhim yo'nalishlardan biri. Shu bilan birga mamlakatda mehnat resurslarining bandligi muammosini ham ijobiy hal qilish mumkin.

Butunjahon sayyohlik tashkiloti turizm sohasida eng tez rivojlanayotgan davlatlar ro'yxatini tuzdi va bu ro'yxatda 20 ta davlatlar orasida O'zbekiston 4-o'ringa qayd etilgan. 2023-yilda O'zbekistonda turizm sohasidan olingan daromad miqdori 1,72 mlrd dollarni tashkil etdi. Zero, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahri 2024 yilda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotining turizm poytaxti sifatida tanlanganligi bejiz emas. Bu haqida tashkilot bosh kotibi Xusrav Noziriyning ta'kidlashicha, hamkorlikning yana bir ustuvor yo'nalishi turizmdir. Shahrisabz shahrining turizm poytaxti sifatida tanlanganligidan maqsad turizm doirasida tadbirlarni o'tkazish va turizmni rivojlantirish ekanligiga, bosh kotibi Xusrav Noziriy tomonidan izoh berilgan. AQShning Forbes jurnali O'zbekistonni 2024-yilda dunyodagi borib ko'rish kerak bo'lgan ajoyib, eng yaxshi sayyohlik yo'nalishlari ro'yxatiga kiritdi. Shu boisdan O'zbekistonning turli mintaqalarida turizmning qator turlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Asosiy qism.** Zamonaviy turizm sanoati iqtisodiyotning yuqori daromad keltiradigan va jadal rivojlanib borayotgan yirik tarmoqlaridan bo'lib, u dunyo xalqlari madaniyati sohasida amaliy muloqot vazifasini o'tamoqda. Turizmni rivojlantirish mamlakatlar, millatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning kengayishiga yo'l ochadi va turli kasb egalari uchun malaka oshirish imkonini beradi. Sayyohlik dunyodagi ko'plab davlatlarda daromad olishning asosiy

sohalaridan biridir. Jahon miqyosida turizm tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, so'nggi yillarda dunyo bo'yicha mehnat resurslarining 10 foizdan oshig'i bevosita turizm sohasi bilan shug'ullanmoqda. Ammo, koronavirus tufayli vujudga kelgan inkirozdan eng katta zarar ko'rgan sohalardan biri ham turizm sohasidir quyida shu haqida ma'lumotlar keltirildi (1-jadval). Pandemiya gacha xalqaro turistlar soni 1,5 mlrd kishiga yetgan balsa, 2020 yilda bu ko'rsatkich 381 ming kishiga teng bo'lib, kiskarish 74 foizni tashkil etgan.

1-jadval

#### Xalqaro turizm faoliyatlarida ishtirok etgan kishilar soni

Yillar	1950	1980	2000	2015	2019	2020	2030
Turistlar soni, mln	25	278	674	1,2	1,5	381	1,8

Manba: UNWTO, 2016:1, Worldometers, 2017. 2 UNWTO, 2016.

COVID-19 pandemiyasining aviatsiyaga ta'siri tufayli, Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi (IATA) ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda ushbu sohada band bo'lganlar soni 46 milliondan 41,7 million kishiga qisqardi, bu esa ish o'rinlarining 52,5 foizini yo'qotishiga olib keldi, turistik sayohatlar esa 58 foizga qisqardi.

Jumladan, O'zbekistonda pandemiya boshlangan 2019 yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan chet ellik sayyoxlar soni 6,7 mln. kishini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021 yilda 1,9 mln kishini tashkil etdi. 2022 yildan vaziyat bir qadar o'nglana boshladi, ammo hali pandemiyagacha davr ko'rsatkichlaridan ancha past darajadadir (2-jadval).

2-jadval

#### 2019-2023 yillarda O'zbekistonga chet ellik turistlar tashrifi

Yillar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Turistlar soni, mln	53	6,7	1,5	1,9	5,9	6,6

2020-yilda O'zbekistonga 2019-yilga nisbatan 4,5 baravar kam xorijliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tashrif buyurgan. 2023-yilda esa O'zbekistonga chet ellik turistlar tashrifi oshib, 2019 –yildagi ko'rsatkichga tenglashib qolganligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatlarning turizm salohiyati bevosita mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, tabiat komplekslari ya’ni, tabiiy sharoiti, texnik infratuzilmalarining rivojlanganligi, xizmat ko‘rsatish tizimi, madaniyat, san’at, ilm-fanning rivojlanganligi bilan, ya’ni bir so‘z bilan aytganda, mamlakatning tabiiy va iqtisodiy-geografik o‘rni bilan bog‘liq. Jumladan, O‘zbekiston xalqaro turizm sohasida imkoniyatlarining kattaligi bilan dunyoning ko‘plab mamlakatlaridan tubdan farq qiladi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda ham dunyoning boshqa yetakchi davlatlari qatorida turizm sohasida yuqori o‘rinlarni tutishda faollik ko‘rsatmoqda. Jumladan, ko‘plab xalqaro nashrlar fikriga ko‘ra, mamlakatimiz 2020-yilda eng jozibador sayyohlik joylaridan biriga aylandi. Va yana Buyuk Britaniyaning The Telegraph gazetasi tashrif buyurishi lozim bo‘lgan shaharlar ro‘yxatida mamlakatimizning yuragi Toshkent shahri haqida ma’lumot berilgan. 2019-yilning yakuniga ko‘ra, O‘zbekistonga 6.748 million kishi tashrif buyurgan bo‘lib, bu 2018-yil statistikasidan 125% ga ya’ni 5,346 million kishiga ko‘pdir. Shu bilan birga turizm xizmatlarining eksporti 1,313 milliard dollarni tashkil etgan, 2018-yilda esa bu 1,041 milliard dollarga teng bo‘lgan. O‘zbekistonda pandemiyadan keyin 2022-yildan chet el fuqorolari tashrifi oshib bordi. Turistlarning O‘zbekistonga kelish maqsadini tahlili quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval

### Tashrif buyurgan chet el fuqarolarining maqsadi

Qarindoshlarini ko‘rish uchun	Dam olish uchun	Davolanish uchun	Xizmat yuzasidan	Tijorat uchun	O‘qish maqsadida
2,2 mln kishi	169,8 ming kishi	44,4 ming kishi	38,8 ming kishi	9,1 ming kishi	2,4 ming kishi


Ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

Manba: Statistika agentligi.

Jadvaldan ma’lumki, O‘zbekistonga turistlarning katta qismi qarindoshlarini ko‘rish uchun va dam olish uchun tashrif buyurgan. Quyidagi 1-diagrammada O‘zbekistonga 2023 yilda eng ko‘p qaysi davlatlarning fuqarolari turistik



maqsadda tashrif buyurganligi haqidagi diagramma keltirildi.



1-diagramma. Davlatlar kesimida O‘zbekistonga tashrif buyurgan chet el fuqarolarining soni (ming kishi hisobida). **Manba:** Statistika agentligi. *Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi*

O‘zbekistonda ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda tog‘ turizmi, sog‘lomlashtirish turizmi va ekologik turizm kabi yo‘nalishlarda tashrif buyuradigan turistlar soni oshib bordi. Mamlakatimiz tog‘li hududlar jumlasiga kirib, tog‘lar O‘zbekistonning 31,3 foiz maydonini egallashi va bu yerda mamlakat aholisining 10 foizdan ko‘prog‘i yashashi hech kimga sir emas. Tog‘ iqlimi, toza va musaffo suv, archazorlarning keng tarqalganligi, ajoyib tabiat manzaralari, relefning turli shakllari, nurash jarayonida vujudga kelgan qoya shakllari sayyohlarning diqqatini o‘ziga tortadi [1; 321. 6;81-83]. Qishda qorning ko‘p bo‘lishi va uzoq vaqt erimay turishi, relefning qulayligi yonbag‘irlarda qishda qor bilan bog‘liq bo‘lgan sport turlari bilan shug‘ullanishga imkon beradi. Tog‘ turizmi yo‘nalishiga asosan bahor va kuz oylarida turistlar tashrifi ortib boradi. Qish va yoz faslida tog‘ hududlarida turistlarni jalb etish uchun tabiat qo‘ynida dam olish uylarini ko‘paytirish, sharoitlarni yaxshilash turistik sig‘imni oshirishadi. Tabiiy-hududiy mintaqalari bo‘lgan daryolarning suv havzalari, tog‘ oldi zonalari, cho‘l va adir hududlarining mavjudligi respublikamizda ovchilik turizmini rivojlantirishga turtki bo‘ladi [4; 243-245. 5;. 97-100].

Kurort va sog‘lomlashtirish joylariga sayohat - nafaqat davolash, balki termal tibbiyot muassasalarida surunkali kasalliklarni tiklash va davolash uchun rejalashtirilgan faoliyatdir. O‘zbekistonning tog‘li hududlari bebaho va hozirga qadar kam o‘rganilgan har xil kasalliklarni davolovchi shifobaxsh mineral suv manbalari, iqlim xususiyati va sport-sog‘lomlashtirish joylariga ega. Tog‘ va tog‘

oldi hududlari mineral suvlarga juda boy bo‘lib, bu yerlarda tibbiyotda foydalanadigan oltingugurtli, yodli, radonli va kuchsiz minerallashgan, ishqorli, termomineral suvlarning katta zahirasi mavjud [3; 69-71]. Ushbu manbalar asosida mamlakatda fizioterapevtik shifoxonalar, sanatoriy-kurortlar va boshqa sog‘lomlashtirish muassasalari tashkil etilgan [2;133-135]. O‘zbekistonning turli hududlarida 200 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suvi va balchiq manbalari aniqlangan. Ushbu yer osti suvlari kimyoviy tarkibi, tibbiy-biologik va boshqa xususiyatlariga ko‘ra turli-tumandir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda sanatoriya va kurortlar soni va ularning sig‘imi mahalliy aholining foydalanishiga ham yetarli emas. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston hududi tog‘lar oralig‘ida (Chirchiq-Ohangaron, Farg‘ona vodiysi, Kitob-Shaxrisabz botig‘i va b.) joylashgan tekisliklar va cho‘llar bilan kontrast tabiatga ega mamlakat. O‘zbekistonda ko‘plab daryolar (Chirchiq, Zarafshon, So‘x, Isfara, Qashqadaryo, Surxondaryo va b.), ko‘llar (Arashon ko‘li va b.) va shifobaxsh mineral buloqlar (Turon, Chortoq, Abu Ali ibn Sino, Omonxona va b.) mavjud. Bugungi kunda mamlakatimizda ichki va tashqi turizm tarmog‘ni ham kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadigan 57318 dan ziyod kishiga mo‘ljallangan maxsus sanatoriy, profilaktoriy, dam olish uylari ishlab turibdi. Turizmning bu yo‘nalishi hududlarda ichki va tashqi turizmni rivojlantirishga mahalliy aholini bandlik darajasini oshirishga sabab bo‘ladi. Buning uchun esa sig‘imi katta sanatoriy va kurortlarni tashkil etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Turizmni rivojlantirishda hududning jozibadorligini oshirish uchun, uning tarixiy-madaniy potensiali katta rol o‘ynaydi. U esa tarixiy yodgorliklar, me’morial ziyoratgohlar va boshqa ma’naviy-madaniy yodgorliklar, xalq hunarmandchiligi, muzeylarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda 7,4 mingdan ziyod madaniy meros ob‘ektlari bo‘lib, ulardan 209 tasi YuNESKOning Butunjahon meros ob‘ektlari ro‘yxatiga kiritilgan. Bundan tashqari, respublikada 11 ta milliy bog‘ va davlat qo‘riqxonasi, 12 ta qo‘riqxonona, 106 ta muzey va sayèhlarni jalb qilish mumkin bo‘lgan ko‘plab boshqa ob‘ektlar ham mavjud. Masalan, tarixiy obidalar turizmini rivojlantirish uchun, Buxoro, Xiva, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent shaharlaridagi va respublikamiz turli viloyat hamda tumanlaridagi tarixiy obidalarga sayohatni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Turizmning rivojlanishi qo‘shimcha yo‘l qurilishi, sayyoxlik marshrutlarini yaratish ekologik qiyinchiliklarni keltirib chikaradi: garchi bu boyliklar mintaqa va mamlakat rivojiga qo‘shimcha qiymat qo‘shishi mumkin bo‘lsa-da, tabiiy va madaniy merosga zarar yetkazishidan muhofaza qilish zarur.

**Xulosa.** Bugungi kunda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish turistlarga xizmat ko‘rsatish tizimini kengaytirish va ular uchun barcha sharoitlarni yaratish maqsadida yangi turistik majmualar, mehmonxonalar, kempinglar va restoranlar,

barlar qurilishi uchun katta mablag‘ ajratilmoqda. Turizmni rivojlantirish uchun yangi ish o‘rinlari, turizmning yangi turlarini yaratish, turistik xizmatlarni tashkil qilish bilan bog‘liq katta vazifalar turibdi. Jumladan keyingi yillarda soddalashtirilgan viza rejimi qo‘llanuvchi mamlakatlar sonini oshirish, elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va berish tizimi ishlay boshlagani sohani rivojiga katta qo‘shdi. Bu esa, shubhasiz, mamlakatimizdagi aholi farovonligi darajasining oshishiga turtki beradi. Ayni paytda biz bor kuchimizni ichki (mahalliy turizm va ziyorat) hamda tashqi turizmni rivojlantirishga yo‘naltirishimiz kerak. Shuningdek, turistik tashkilotlarga xorijiy investitsiyalar jalb etish, yangi turistik yo‘nalishlar tashkil etish, tarmoqni rivojlantirish uchun malakali kadrlar tayyorlashni hududlarda yuqori saviyada takomillashtirish va xizmat ko‘rsatishni jahon andozalariga tenglashtirishga intish amaliy ahamiyatga ega. Agarda respublikada turizm sohasini rivojlantirilsa, mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi va valyuta tushumlarini oshirishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Safarov I. B. Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region) // Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 321- 324.
2. Усманова Р. Оптимизация использования туристических ресурсов Кашкадарьинской области // Ўзбекистонни топ ўн туристик худудлар қаторига киритиш истикболлари: барқарор ривожланиш имкониятлари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман материаллари тўплами Бухоро-2020 йил. С. 133-135
3. Усманова Р. Роль природных факторов в развитии рекреации в бассейне реки Кашкадари Материалы международного научно- теор . конф . «Туризм и экономика», посвященной Году поддержки и развитию туризма в Кыргызстане. Ош-2001 .С. 69-71
4. Усманова Р. Problems of developing ecotourism in Kashkadarya region // Международная конференция «Прикладная экология и устойчивое развитие». Тошкент-2006. С. 243-245
5. Усманова Р., Бердикулова М. Географические аспекты развития туризма в Узбекистане.// VIII Международная научно-практическая конференция «Современные проблемы развития сферы туризма» Казахстан 2019 г. С. 97-100
6. Усманова Р., Навотова Д. Экотуристические потенциалы Кашкадарьинской области // Ўзбекистон география жамияти ахбороти 51-жилд, 1-қисм. Тошкент – 2017. С. 81-83
7. Усманова Р., Боймуродова Х. Агротуризмни ривожлантиришнинг географик жиҳатлари (Кашкадарё вилояти мисолида) // Вестник Аграрной Науки Узбекистана № 6 (6) 2022. 143-147 б.

8. Usmanova R., Boymurodova Kh.B. Geographical aspects of development of agrotourism in Kitab-Shakhrisabz concave slope // «Экономика и социум» №3(118)-1 2024. С. 447-453.
9. Статистика агентлиги маълумотлари 2018-2023 йй.
10. UNWTO Tourism Recovery Trasker, 2021 <https://1.05.2022>
11. UNWTO, 2016:1, *Worldometers*, 2017. 2 UNWTO, 2016.

## HOW TO DEVELOP TOURISM

**Azimov Fayyozjon**

Trainee teacher Shahrishabz State Pedagogical Institute

[fayyozjonazimov@gmail.com](mailto:fayyozjonazimov@gmail.com)

Tel: +99891 811 41 77

Orcid: 0009-0007-6823-6916

**Abstract.** Tourism development is a multifaceted process that involves strategic planning, community engagement, and sustainable practices. This paper explores various aspects of tourism development, examining its economic, social, and environmental impacts. By analyzing existing literature, methodologies, and case studies, the study aims to provide a comprehensive understanding of effective tourism development strategies.

**Keywords.** Tourism development, sustainable tourism, community engagement, economic impact, environmental impact, strategic planning

**Аннотация.** Развитие туризма — это многоаспектный процесс, включающий стратегическое планирование, вовлечение сообщества и устойчивые практики. В данной статье рассматриваются различные аспекты развития туризма, анализируются его экономические, социальные и экологические последствия. Путем анализа существующей литературы, методологий и примеров, исследование стремится предоставить всестороннее понимание эффективных стратегий развития туризма.

**Ключевые слова.** Развитие туризма, устойчивый туризм, вовлечение сообщества, экономическое воздействие, экологическое воздействие, стратегическое планирование

**Annotatsiya.** Turizm rivojlanishi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, strategik rejalashtirish, jamiyatni jalb qilish va barqaror amaliyotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada turizm rivojlanishining turli jihatlarini ko‘rib chiqiladi, uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta‘siri tahlil qilinadi. Mavjud adabiyotlar, metodologiyalar va amaliyotlarni tahlil qilish orqali tadqiqot samarali turizm rivojlanish strategiyalarini to‘liq tushunishni maqsad qilgan.

**Kalit so‘zlar.** Turizm rivojlanishi, barqaror turizm, jamiyatni jalb qilish, iqtisodiy ta‘sir, ekologik ta‘sir, strategik rejalashtirish.

### **Introduction**

Tourism is a significant global industry that contributes to economic growth, cultural exchange, and employment opportunities. However, its development must be managed carefully to maximize benefits and minimize negative impacts. This paper investigates the key components of successful tourism development, including sustainable practices, stakeholder involvement, and strategic planning.

### **Literature Review**

#### *Economic Impact of Tourism*

Tourism can stimulate economic growth by creating jobs, generating income, and attracting foreign investment. According to the World Travel & Tourism Council (WTTC, 2021), the tourism sector accounted for 10.4% of global GDP and supported 334 million jobs worldwide before the COVID-19 pandemic. The recovery and growth of tourism are crucial for many economies, particularly in developing countries.

#### *Social and Cultural Impact*

Tourism promotes cultural exchange and mutual understanding between visitors and host communities. However, it can also lead to cultural commodification and social tensions. Scheyvens (1999) highlights the importance of empowering local communities through tourism to ensure that the benefits are equitably distributed and cultural heritage is preserved.

#### *Environmental Impact*

Tourism development can have significant environmental impacts, including resource depletion, pollution, and habitat destruction. Sustainable tourism practices, such as eco-friendly accommodations and responsible tourist behavior, are essential for mitigating these impacts (Hall & Lew, 2009).

### **Methods**

This study employs a mixed-methods approach, combining qualitative and quantitative research. Data were collected through a comprehensive literature review, case study analysis, and surveys of stakeholders in various tourism destinations. The qualitative data involved thematic analysis of interviews and



focus groups, while the quantitative data included statistical analysis of economic and environmental indicators.

### **Results**

#### *Economic Benefits*

The analysis reveals that tourism can substantially boost local economies. For instance, in Bali, Indonesia, tourism contributes significantly to the GDP and provides numerous employment opportunities (OECD, 2020). Similarly, in Costa Rica, eco-tourism has become a major revenue source, promoting conservation efforts and sustainable development (Honey, 2008).

#### *Social and Cultural Outcomes*

Effective tourism development enhances community well-being by fostering cultural pride and social cohesion. In Bhutan, the policy of high-value, low-impact tourism ensures that cultural heritage is respected and local communities benefit economically (Rinzin, Vermeulen, & Glasbergen, 2007).

#### *Environmental Sustainability*

Case studies indicate that destinations implementing sustainable practices see reduced environmental degradation. For example, the Galápagos Islands have strict regulations on tourist numbers and activities, helping to preserve their unique ecosystems (Epler Wood, 2002).

### **Discussion**

The findings highlight the importance of integrating economic, social, and environmental considerations in tourism development. Stakeholder engagement is crucial for ensuring that tourism benefits are shared equitably and that development is aligned with local needs and capacities. Sustainable tourism practices, such as limiting visitor numbers and promoting eco-friendly infrastructure, are essential for protecting natural and cultural resources.

### **Conclusion**

Tourism development, when managed effectively, can drive economic growth, enhance social and cultural well-being, and promote environmental sustainability. Future research should focus on developing more comprehensive frameworks for sustainable tourism and exploring the long-term impacts of tourism policies. Policymakers and stakeholders must collaborate to create tourism strategies that balance economic benefits with social and environmental responsibility.

## **REFERENCES**

1. Epler Wood, M. (2002). *Ecotourism: Principles, Practices & Policies for Sustainability*. United Nations Environment Programme.

- 2.Hall, C. M., & Lew, A. A. (2009). Understanding and Managing Tourism Impacts: An Integrated Approach. Routledge.
- 3.Honey, M. (2008). Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise? Island Press.
- 4.OECD. (2020). OECD Tourism Trends and Policies 2020. OECD Publishing.
- 5.Rinzin, C., Vermeulen, W. J. V., & Glasbergen, P. (2007). Ecotourism as a Mechanism for Sustainable Development: The Case of Bhutan. Environmental Sciences, 4(2), 109-125.
- 6.Scheyvens, R. (1999). Ecotourism and the Empowerment of Local Communities. Tourism Management, 20(2), 245-249.
- 7.WTTC. (2021). Travel & Tourism Economic Impact 2021. World Travel & Tourism Council.

## TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISH OMILLARI

**Bahodirov Shohruh Bahodirovich**

*Toshkent davlat Transport universiteti*

*Tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm industriyasining rivojlanishi uchun zarur shartlar - bu, salomatlik va xavfsizlikning ta'minlanishi, infrastruktura va logistikaning yaxshilashi, turistik manzil va mahsulotlarning sifatligi, turistik bozor va reklamaning samaradorlik darajasi tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** turistlarning sayohat qilishlari, madaniy va ekologik merosni saqlash, turistik manzil, turistik bozor, turistik imkoniyat, turizm reklamasi.

Xalqaro turizm xizmatlarini zamonaviy texnologiyalarni jalb qilgan xolda yanada rivojlantirishga bog'liq ilmiy izlanishlarning ortishiga sabab, turizm sohasining yuqori daromadliyligi hamda ulkan salohiyatga ega ekanligi iqtisodiy jihatdan asoslanib borilayotganligi bilan bog'lib jahon iqtisodiyotining eng zarur tarmog'i sifatida turizm sohasining "Jahon YaIMdagi ulushi mos tarmoqlardagi multiplikativ samarani hisobga olgan holda 6 %ni tashkil etmoqda. Iqtisodiyotning turizm tarmog'i jahonda ish bilan bandlikning 6-7 %ini ta'minlovchi ish joylarini yaratishda etakchilik qilmoqda. Xalqaro turistik tashkilot (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm dunyo bo'yicha xizmatlar eksportining 30 %ini ta'minlaydi"<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup><https://www.unwto.org/>

Bugun butun dunyo nazari yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy 7 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga qaratilganidir. “Strategiyaning “Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o‘shirish sur‘atlarini zamon talablari darajasida ta‘minlash”ga bag‘ishlangan uchinchi ustuvor yo‘nalishida raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish”<sup>2</sup>. Dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 marta, ularning eksportini esa 10 marta oshirib, 500 mln. dollarga etkazish<sup>3</sup> vazifasi qo‘yilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda kelgusi besh yilda turizm xizmatlarini kamida 5 barobarga oshirish<sup>4</sup> kabi aniq maqsadlar kelirilganligi ushbu mavzuning dolzarbligi belgilaydi.

Turizm industriyasi - bu soha va korxonalar guruhidan tashkil topgan yirik va murakkab iqtisodiy kompleks bo‘lib, ularning faoliyati hordiq chiqarish va dam olishga bo‘lgan turli va tobora murakkablashib borayotgan talabni qondirishga qaratilgan.

Hozirgi davrda turizm industriyasi rivojlanishining asosiy omillari quyidagilardan iborat:

Birlamchi ehtiyojlarni (uy-joy, kiyim-kechak, oziq-ovqat) qondirishdan tashqari rekreatsiya ehtiyojlarini qondirishga sarflanadigan aholi daromadlarining o‘shishi (iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar rezidentlarining iste‘mol kompleksi xarajatlari tarkibida turistik xizmatlarga sarflangan mablag‘lar 2-o‘rinni egalladi. uy-joy sotib olish xarajatlari);

urbanizatsiya keskinligining kuchayishi va ekologik vaziyatning yomonlashuvi, bu ekologik toza muhitda dam olishga bo‘lgan talabni tezlashtiradi, shahar hayotini boshqa faoliyat turlari bilan almashtirishni, kundalik hayot va hayotdan dam olishni talab qiladi;

bo‘sh vaqtning ko‘payishi, ya‘ni insonning iroda erkinligiga ega bo‘lgan vaqt. Rivojlangan mamlakatlarda turizm amaliyotida quyidagi muvozanat o‘rnatilgan: odatda, ta‘til vaqti xorijiy turistik sayohatlarga, dam olish kunlari ichki sayohatlarga, kechki bo‘sh vaqt esa shaharda dam olishga sarflanadi. Dam olish kunlari bo‘sh vaqt tarkibida etakchi o‘rinni egallaganligi sababli rivojlangan mamlakatlarda ichki turizmga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda va ichki turizm sanoati jadal rivojlanmoqda;

maxsus turistik resurslarni takomillashtirish bilan birga ularni iste‘mol qilish

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni. 28.01.2022 yil.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni. 28.01.2022 yil.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni. 28.01.2022 yil.

uchun zarur bo‘lgan turizm faoliyatini osonlashtirish imkonini beruvchi tashkiliy vositalar va infratuzilmalarni shakllantirish;

turizm industriyasida xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro savdoni rivojlantirish (bunda turizm tez o‘sib borayotgan turistik talabni qondirishdagi samaradorligi asosida rag‘batlantiriladi);

nafaqat reklamani rivojlantirish, balki minglab sayyohlarga tez va samarali xizmat ko‘rsatish imkonini beradigan turizm ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tizimlari va axborot texnologiyalarini rivojlantirish.


Turizm industriyasi turizm bilan bog‘liq tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi korxonalar va muassasalardan iborat.



### 1-rasm. Turizm industriyasi turizm bilan bog‘liq tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi korxonalar va muassasalar

Turizm industriyasi turoperatorlar ishi natijasida turistlar uchun zarur bo‘lgan xizmatlarni ishlab chiqaradi. Turoperator ushbu xilma-xillikdan individual ravishda olinadigan xizmatlar emas, balki qimmatli iste‘mol xususiyatlariga ega turistik mahsulotni yaratadi.

Ammo shuni ta‘kidlash kerakki, turoperatorlar faoliyati turistik mahsulotda turizm industriyasining elementlarini tashkil etmaydi, chunki xizmatlarning har biri ishlab chiqarilgan joyda alohida iste‘mol qilinadi, faqat ushbu turoperatorning faoliyati tufayli, ushbu xizmatlarni ishlab chiqarish ishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘ldi.



## 2-rasm. Turizm sanoatining o'ziga xos xususiyatlari

Turistik talab faqat turizm sanoati xizmatlarini ishlab chiqarish tizimida qondiriladi. Turistik mahsulotlarning bir qismi turist talabini qondirishda birlamchi, boshqalari esa qo'shimcha yoki ikkilamchi (masalan, ovqatlanish va transport tizimidan foydalanish) bo'ladi.

Turizmning ishlab chiqarish xarakteri turistik muassasalarni milliy iqtisodiyot uchun foydali qiladi. Turizmga bo'lgan talabning oshishi va turistik muassasalar faoliyati natijasida mahalliy daromadlar ortadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, turizm xizmatlari bilan bog'liq barcha sohalar rivojlanadi; turistik markazlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanadi, xalq hunarmandchiligi yangi sur'atlarga erishadi, valyuta tushumlari ko'payadi; mahalliy aholining turmush darajasi oshadi.

Turizm aylanmasi turistik muassasalar o'rtasida bevosita yoki bilvosita shakllangan iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, u turistik mahsulot va xizmatlar oqimini, shuningdek, turizm iqtisodiyotiga to'lovlar va investitsiyalarni o'z ichiga oladi.

Turistik tovarlar va xizmatlarning har bir oqimi to'lovlar oqimi bilan muvozanatlanadi. Ta'kidlash joizki, turistik firmalar va turistlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ayirboshlashdan tashqari, turistlar va boshqa kompaniyalar o'rtasida ham almashinuvlar mavjud.

Turizm industriyasi O'zbekiston iqtisodiyotiga katta hissa qo'shadi va mamlakatning tarixiy, madaniy va tabiiy boyliklarini dunyoga tanitadi. O'zbekistonlik olimlar turizm industriyasining rivojlanishi va istikboli uchun bir necha takliflar berishadi. Birinchidan, turizm infrastrukturasi yanada yaxshilash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kerak. Ikkinchidan, turizm xodimlarining malakasini oshirish va xizmat sifatini yanada yaxshilash kerak. Uchinchidan, turizm mahsulotlarini yanada turli xillashtirish va mamlakatning barcha hududlaridagi turistik imkoniyatlardan foydalanish kerak. To'rtinchidan, turizm reklamasini yanada kengaytirish va dunyodagi turistik bozorlarga o'z mahsulotlarini taklif qilish kerak. Bu takliflar amalga oshirilsa, O'zbekiston turizm industriyasi yanada rivojlanib, mamlakat iqtisodiyotiga va imidjiga katta qo'shimcha qiymat qo'shadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi farmoni. 28.01.2022 yil.



2. Юрик Р.А. Анализ современного состояния Российского рынка туристских услуг. «Маркетинг в России и за рубежом» – 2005. №2.
3. Квартальнов В.А. Туризм. - М.: Финансы и статистика, 2002. – 320с.
4. Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари // Монография. –Т.: «Фан ва технология» нашриёти, 2016. - 184 б.
5. <https://www.unwto.org>

## **O'ZBEKISTONDA ZIYORATGOH VA QADAMJOLAR, TURIZM XIZMATLARINI JADAL RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.**

**Yakubova Go'zal**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi

**Kalit so'zlar:** turizm, arxeologik, globallashtirish, resurs, integratsiya, lokomotiv tarmoq,

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor sohani iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirib, yurtimizning tarixiy obidalari, arxeologik boy yodgorliklari, go'zal tabiati, milliy qadriyat va an'analarimiz bilan yaqindan tanishtirishda muhim omil bo'layotir.

Bugungi globallashtirish davrida o'z maqsadlari sari dadil qadam tashlayotgan yurtimiz – Yangi O'zbekistonda har jabhada bo'lgani singari ma'naviyatni yuksaltirish, milliy o'zlikni anglash va milliy madaniyatni yuksaltirishga ham alohida e'tibor berilmoqda.

Turizm O'zbekiston iqtisodiyotida eng yosh sohalardan biridir va shunga qaramasdan boshqa ayrim sohalarga nisbatan jadal rivojlanmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish uchun avvalo hududlarda mavjud bo'lgan resurslardan o'rinli foydalanish talab etiladi. O'zbekistonda mavjud turistik resurslardan tarixiy obidalar asosiy qismni tashkil etadi. Shu sababli ham mamlakatga tashrif buyuruvchilarning ko'pchiligi tarixiy obidalariga qiziquvchi turistlar sanaladi. Biroq, mamlakatda turistlarni jalb qilishda faqatgina mazkur yo'nalish bilan kifoyalanmasdan boshqa muqobil yo'nalishlarni rivojlantirish hamda ulardan samarali foydalanish uchun zarur ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ayni paytda mamlakatimizda turizm sohasini har tomonlama rivojlantirish va uni raqobatdosh sohaga aylantirish maqsadida hukumat tomonidan, jumladan, shaxsan muhtaram Prezidentimiz tomonidan bosqichma-bosqich kompleks qarorlar, farmonlar va davlat dasturlari qabul qilinib amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Hozirgi kunda, xususan, o'tib borayotgan oxirgi yillar davomida iqtisodiyotimizning barcha

sohalarida keskin o'zgarishlar amalga oshirilib, ochiq siyosat asosida jahon iqtisodiyotiga integratsiya jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Jumladan, turizm sohasiga berilayotgan e'tibor jahon hamjamiyatining ham diqqat e'tiborida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan turizm sohasini iqtisodiyotning asosiy tarmog'i sifatida rivojlantirish va sohani mamlakatning lokomotiv tarmoqlaridan biriga aylantirish vazifasi qo'yilmoqda. Turizm nafaqat iqtisodiy muammolar yechimini topishda, balki millatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash hamda xalqaro sayyohlik bozoriga uzviy qo'shilish, O'zbekistonning madaniy-tarixiy va ma'naviy merosini jahon hamjamiyatida targ'ib qilishda ham o'zni va roli benihoyat yuqoridir. Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida dunyobo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Ushbu sohani rivojlantirishda IHTning xalqaro uchrashuvi Shahrizabz shahrida bo'lib o'tganligi va “Shahrizabz – IHT turizm poytaxti” xalqaro turizm festivaliga mezbonlik qilganligini alohida ta'kidlashimiz mumkin. Bu nafaqat Shahrizabz shahri turizmining balki butun O'zbekiston turizmining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim”. O'zbekiston har doim ko'plab madaniyat va sivilizatsiyalarning kesishish markazi bo'lib kelgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach ajdodlarimizdan qolgan madaniy-tarixiy merosga e'tibor kuchaydi. Muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarga ko'proq e'tibor qaratish va ziyoratchilarning tashrifini ko'paytirish, insonlarning ziyoratgohlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish uchun ular haqida ma'lumotlarni keng ommaga yoyish kerak. Birinchidan, muqaddas qadamjolarimizni ko'rkamlashtirish va oldini obodonlashtirish lozim. Ikkinchidan, ziyoratchilar tashrif beradigan ziyoratgohlarga borish uchun transport vositalarini ko'paytirish va qulay qilishimiz kerak. Shundan so'ng ziyoratchilarning ziyoratgohlarga bo'lgan tashrif ko'payadi va iqtisodiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarni ziyorat qilish va asrab-avaylash ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelmoqda. Albatta muqaddas qadamjolarini ko'paytirsak, turizm sohasini yanada kengroq rivojlanishiga zamin yaratiladi. Yangi O'zbekistonni jadal sur'atlarda turizm poytaxtiga aylantirish nafaqat davlatimizning balki barchamizning zimmamizdadir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-232-sonli Qarori. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-5991928>
3. Морозов М.А. Дестинация – важнейший элемент туризма / М.А. Морозов, О. Коль. Туризм: практика, проблемы, перспективы. – 1998. – № 1. Николаев С.С. Стратегия формирования единого туристского
4. Львова Т.В. Влияние качества туристских услуг на экономику дестинации (на примере города-курорта Сочи): автореф. дисс. канд. экон. наук. - Сочи, 2011. - 26 с.
4. Пардаев М.Қ., Атабаев Р., Пардаев Б.Р. Туризмни ривожлантириш имкониятлари //Т.: Фан ва технология, 2007. - 32 б.;
5. Асланова Д.Х. Модели формирования туристского кластера за рубежом // Сервис, 2013. - №1. - С.4-9.
6. Навруз-Зода Б.Н умумий тахрири остида. Туристик худуд.

## MILLIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

**Maxsumov Maqsud Maxmut o'g'li**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*O'zbek adabiyoti yo'nalishi 1-kurs tayanch doktoranti*

[maxsumovmaqsud@gmail.com](mailto:maxsumovmaqsud@gmail.com)

**Annotatsiya:**Maqolada milliy turizmni rivojlantirish iqtisodiyotga qanday ta'sir qilishi, natijalari, iqtisodiyotdagi o'zgarishlar haqida bayon qilingan. Ushbu maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan. Maqola oxirida xulosa berilgan.

**Kalit so'zlar:**Turizm, milliy iqtisodiyot,import, eksport, qishloq xo'jaligi, investitsiya

Ko'plab davlatlar, ular qatorida O'zbekiston ham turizm sohasini milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tan olgan. Chunki turizm YalMning o'sishiga, valyuta tushumlari va investisiyalar hajmining ortishiga, sanoat, savdo va ijtimoiy infratuzulma rivojlanishiga yordam beradi. Bugungi dunyoda turizm iqtisodiyotning sohasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi juda tezlik bilan taraqqiy etib borayotgan dunyoda insonlar fikri, ularning harakatlari, hayotdan zavq olish yo'llari o'zgarib boryapti. Insonlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazib, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning

urf - odatlari, qadriyatlarini bilishga intilmoqdalar. Bunday xizmatlarni turizm sohasi ko'rsatadi. Insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. So'nggi asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizmning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o'sish sur'ati 8%-10% gacha boradi. Bu esa mamlakat turizm sohasining yoki milliy turizmning qanchalik darajada mamlakatlar iqtisodiyoti tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shunisi qiziqki, milliy turizm rivojlanishi natijasida transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari ham rivojlanib boradi.

Respublikamizda har tomonlama imkoniyatlar va asoslar yetarli. Faqat zamonaviy milliy turizmni rivojlantirish strategiyasini hayotga tatbiq etib, turizm sohasini yuqori pog'onalarga ko'tarish imkoniyatini yaratishimiz kerak. O'zbekistonda turizm yangi soha hisoblanmaydi, bu soha qadimdan mavjud bo'lgan, faqat bizning oldimizda turgan vazifa milliy turizmni yangicha strategiya asosida rivojlantirish va istiqbolini belgilashdir. Turizm turistlarga xizmat ko'rsatishda aloqador bo'lgan tarmoqlar majlisini qamrab oluvchi o'ziga xos dam olish sanoati hisoblanadi. Turizm sohasidagi hamkorlik xo'jalik jamoat ishlab chiqarishga aholining band bo'lmagan, yoki qisman band bo'lgan qatlamlarini jalb qilib, mehnat resurslaridan to'liq va oqilona foydalanish muammosini hal qilishga yordam beradi. Bu ayniqsa sanoati yaxshi rivojlanmagan mintaqalar uchun muhimdir.

Turizm sohasidagi hamkorlik iqtisodiy imkoniyatlari nisbatan yuqori emasligi bilan farqlanuvchi ayrim mintaqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Turizm, bu mintaqalarda ishga oid faollikka yordam beradi, jamoat ishlab chiqarishida band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholini jalb qiladi, mehnatni tatbiq qilish sohasini kengaytiradi. Turizm sohasida hamkorlik qilish iqtisodiyotning rivojlanishini faollashtiradi, mintaqaviy resurslardan samarali foydalanishga hamda xizmat ko'rsatish sohasi xodimlarining malakasini oshirishga yordam beradi. Milliy Turistik xo'jalikqishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirishni jadallashtirish va uni yaxshilashga yordam beradi. Kelajakda aholiga xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi munosabati bilan xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar soni ortib boradi. Turizm sohasida hamkorlik qilish orqali xo'jalikning jadal rivojlanishi, uning iqtisodiy ahamiyatining o'sishi turistik xizmat sohasining katta foyda keltira olishi, bu sohaga sarmoyalarni ko'plab sarflanishiga olib keldi. Mablagni ko'p talab qilishiga qaramay, turistik sohaga sarflangan sarmoya juda foydalidir, chunki u o'zini nisbatan tez qoplaydi.

Xorijiy turistlardan, mahalliy aholidan olinadigan pul tushumlari daromadga aylanadi va milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida muomalada bo'ladi.

“O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlanish istiqbollari”- bu mavzu bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Fikrimizning isboti sifatida bugungi kunda turizm sohasida katta yutuqlarga erishilayotganligi, tez sur‘atlar bilan o‘sib borayotganligi, yangidan – yangi mehmonxonalarning barpo etilayotganligi, ishchi o‘rinlari sonining ko‘payishi, malakali mutaxassislarining ortib borishi, turistlar oqimining yildan – yilga ko‘payayotganligini ta’kidlab o‘tishimiz joiz deb o‘ylayman. Daromad keltirishi bo‘yicha turizm neft va avtomobil sohasidan keyin uchinchi o‘rinda turadi. Tabiiyki, valyuta oqimini ko‘payishiga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda, madaniy yodgorliklardan turizm maqsadida foydalanish masalalarini, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani o‘rganish zaruriyati mavjud. Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotining rivojlangan mamlakatlarida turizm industriyasi iqtisodiyotning etakchi tarmog‘i hisoblanadi.

O‘zbekistonda turizm sohasida olib borilayotgan tarkibiy iqtisodiy islohatlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri ham shu maqsadga yo‘naltirilgan. O‘zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz, mamlakatning asosiy turizm rayonlariga bo‘linishi xususida to‘xtalib o‘tish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda Respublikada to‘rtta asosiy turistik mintaqa mavjud bo‘lib, ular Farg‘ona, Samarqand-Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir. Farg‘ona turizm mintaqasi Farg‘ona vodiysini o‘z ichiga hamrab oladi. Uning turistik resurslari arxeologik qazilmalar va me‘morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an‘anaviy xalq hunarmandchiligi va san‘ati mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat. Bu yerda avtomobil va temir yo‘llarning keng tarmog‘ini mavjudligi ham Farg‘ona mintaqasidan turizm maqsadlarida foydalanishga, uning butun hududida turizm bazalari va dam olish maskanlarini joylashtirishga imkoniyat yaratadi.

Toshkent turizm mintaqasi kelgusida turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga egadir. Mazkur turizm rayonidagi madaniyat yodgorliklari, poytaxt viloyatining bugungi hayoti, qurilishlar, yangi shahar va qishloqlar, zamonaviy madaniyat, mintaqaning tabiati, boy landshafti, rang-barang o‘simlik va hayvonot dunyosi uning diqqatga sazovor bo‘lishiga sabab bo‘ladigan muhim omildir. Avtomobil va temir yo‘llari tarmog‘i Toshkent turizmi mintaqasidagi turizm markazlarini bir-biri bilan bog‘laydi hamda shahar atrofidagi temir yo‘l va avtomobil turizmini rivojlantirishga imkon beradi. Samarqand-Buxoro turizm mintaqasi Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarini o‘z ichiga hamrab oladi. Samarqand va Buxorodagi butun dunyoga mashhur me‘morchilik obidalari ushbu mintaqadagi turizmni rivojlantirilishiga asos hisoblanadi. Bundan tashqari, Zarafshon daryosi orqali o‘tuvchi temir yo‘l va keng tarmoqdagi shosse yo‘llari, Zarafshon tog‘ tizmasi orqali o‘tgan unchalik baland bo‘lmagan dovonlar va yaxshi trassalar mintaqada turizmni rivojlantirish uchun g‘oyatda qulay omil



hisoblanadi. Xorazm turizm mintaqasining salohiyati asosan Xivaning Ichan qal'a qo'riqxonasida joylashgan va jahonda misli yo'q g'oyatda boy tarixiy-me'morchilik yodgorliklariga tayanadi. Faoliyat ko'rsatayotgan turizm mintaqalari bilan bir qatorda yana istiqbolli mintaqalar mavjud bo'lib, ular Jizzax, Qarshi-Termiz va O'rta-Qoraqalpoq mintaqalaridir. Kelajakda bu mintaqalardagi mavjud imkoniyatlarning rivojlantirilishi mamlakatimizda turizm xizmatlari bozorini yanada kengayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, turizm malakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada oshirish maqsadida turizm salohiyatidan foydalanishning kompleks, o'zaro bog'langan mexanizmlarini shakllantirish talab etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alieva M.T. “Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti” darslik, Toshkent, TDIU 2009 yil, 146 bet.
2. Komilova F.K “Mukammal turizm g'oyasi”. “Iqtisodiyot va ta'lim” № 2, 2003 yil 98 bet.

## MILLIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MENEJMENTNING AHAMIYATI

**Rahmatullayeva Sabohat Sa'dullayevna**  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada turizm va uni rivojlantirishda menejmentning o'рни haqida ma'lumotlar berilgan. Maqolada bayon etish metodidan foydalanilgan. Bundan tashqari piar metod nima, uning vaifalari nima, qanday ustunliklari bor degan savollarga javob olishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Piar-menejment, daromad, salohiyat, axborot-kommunikatsiya, konsultatsiya, reklamamlar

So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasida bir qator sharoit va imkoniyatlar yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, bu boradagi mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayotgani ham kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri mazkur sohada piar menejmentning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi deyish mumkin.

Turizm sohasidagi piar menejment(PR)ning asosiy vazifasi sayyohlik tashkilotlari va jamoatchilik o'rtasida do'stona munosabatlarni hamda xalqaro aloqalarni o'rnatish, shuningdek, o'zaro munosabatlarni qo'llab-quvvatlashga

qaratilgan uzoq muddatli sa’y-harakatlarni rejalashtirish hamda amalga oshirish hisoblanadi.

Menejmentning asosiy vazifasi qulay mehnat sharoitlariga yo‘l ochib beruvchi va o‘z xizmatchilarining professional o‘sishi va ularning faoliyatini boshqarish hisobiga xizmatchilarning turmush darajasini ko‘tarish imkoniyatini beruvchi samarali turistik tizimini yaratishdan iboratdir. Xalqaro savdo xalqaro ish taqsimlanishining rivojlanishi natijasi hisoblanadi. O‘z navbatida bu jarayon yangi hamkorlikning ya‘ni turizm rivojlanishining yo‘llarini ochib beradi. Davlatning xalqaro turistik almashinuvdagi o‘rnini, xalqaro bo‘linishni va turizm rivojlanishining umumiy yo‘nalishlarini tushuntirib va ko‘rsatib beruvchi xalqaro turizm nazariyalariga quyidagilar kiradi:

- mutlaq ustunlik nazariyasi;
- nisbiy ustunlik nazariyasi;
- omillarni solishtirish nazariyasi;
- mahsulotning hayot davri nazariyasi;
- davlatning tegishlilik nazariyasi.

Piar-menejmentni mamlakatning “qiyofasi” va o‘zaro manfaatli hamkorlikdagi “ko‘prik” deyish mumkin. Turizm PR bir qator o‘zaro uzviy bog‘langan qismlardan tashkil topadi. Bular, birinchidan, tizimli tahlil, strategik rejalar ishlab chiqish uchun marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, ikkinchidan, dastur va rejalar ishlab chiqish, uchinchidan, iste‘molchilar bilan samarali o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish, to‘rtinchidan, turli soxta axborot manbalarini aniqlash va bartaraf etishdir.

Mazkur sohadagi PR faoliyatini bir necha yo‘nalishga ajratish mumkin. Ya‘ni brendni reklama qilish (bu yirik turizm operatorlariga, shu jumladan, mehmonxonalarga xos), sayyohlik xizmatlarini keng targ‘ib qilish, mamlakat nufuzi va ijobiy qiyofasini shakllantirish, mamlakatning alohida hududlari turistik salohiyatini ishlab chiqish va targ‘ib qilish.

Turizm sohasida PR zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanadi. Xususan, jamoatchilik bilan aloqalar o‘rnatishda OAV bilan hamkorlik (press-relizlar, maqolalar, intervyu, press-turlar, press-konferensiyalar), ivent-tadbirlar (turli turistik mahsulotlar taqdimotlari, ko‘rgazmalar, yarmarkalar, festivallar, vorkshoplar (biznes va ish faoliyati uyg‘unligi), treninglar, anjumanlar, muayyan turistik tashkilot imiji reklamasi, homiylik va xayriya marosimlarini o‘tkazish, ichki PR (turistik tashkilot ichida turli tadbirlarni tashkillashtirish, shu jumladan, bilim salohiyati va malakani oshirish bilan bog‘liq, timbiding, tur reklamalari va h.k.), promo va PR targ‘ibotlar, Internetda reklama qilish (sayt, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, onlayn konsultatsiyalar, forumlar, banner reklamalari va boshqalar), kompaniyaning

o'ziga xos uslublari (ranglar, shiorlar, savdo belgisi va b.) kabi vositalar qo'llaniladi.

Turizm industriyasi millionga yaqin ishchi va xizmatchilarni ish joylari bilan ta'minlab, ular kasb mahoratining o'sishiga imkoniyatlar yaratib bermoqda. Shuni aytib o'tish kerak-ki, bu sohada ish bilan ta'minlanish boshqa sohalarga qaraganda ikki barobar tez o'smoqda. Ichki va xalqaro turizm rivojlanishi tartibsiz ravishda sodir bo'lmaydi. Bu boshqarilishi lozim bo'lgan inson faoliyatining maxsus shaklidir. Turizm industriasida menejmentning rivojlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va texnologik omillar ta'sir qiladi. Masalan, iqtisodiyot beradigan daromadlarsiz turizmning ommaviyligiga erishib bo'lmaydi, demak boshqarilish vositasi ham mavjud bo'lmaydi. Turizm tizim deganda turizm tarmog'ida bo'ladigan munosabatlar va hodisalarning to'plami va yaxlitligi tushuniladi. Turizm bu tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir qiluvchi turizm tashkilotlari va hududlarini o'z ichiga oluvchi munosabatlar tizimidir.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, turizmni rivojlantirishda menejmentning o'rni alohida ahamiyatga ega. Chunki birinchi navbatda boshqaruvni yo'lga qo'yish sayohat, ziyoratlarni tashkillashtirish uchun kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.Худайбердиева О. К. ЭКОНОМИЧЕСКИЕ РЕФОРМЫ СФЕРЫ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ. –2021. –С. 216-220.

2.Худайбердиева О. К. ИННОВАЦИИ И НАУЧНЫЙ ПРОГРЕСС– ФУНДАМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ //ББК 65.0501 А 43. –2022. –С. 331.

3.Халлиева N.R. “Turizm sohasini rivojlantirishda aholi bandligini ta'minlash nazariyasi va amaliyoti” Monografiya. Turon nashriyoti, Toshkent 2023-yil.

#### **ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ОПТИМАЛ БОШҚАРУВ МОДЕЛИ ТУЗУЛМАСИ ҲАМДА ТАМОИЛЛАРИ**

**Мухитдинов Ш.Х.**

Қарши давлат университети  
Туризм ва маркетинг кафедраси доценти

**Аннотация:** Мазкур мақола минтақа туризмни ривожлантиришнинг оптимал бошқарув модели тузулмасини бир тизимини яратишнинг энг муҳим дастлабки шарти минтақа иқтисодиётининг оптимал ривожланиш назарияси ва бошқаришга оптималлик тамойилини изчиллик билан қўлланилиши жиҳатлари ёритлиди

**Калит сўзлари:** оптимал бошқариш, иқтисодиёт секторлари ривожланиши, Нарх, фойда, рентабеллик, моддий рағбатлантириш, ресурслар (тизимли ёндашув), прициплар цикли

Бугунги кунда минтақа туризмни оптимал бошқаришнинг бир тизимини яратишнинг энг муҳим дастлабки шарти минтақа иқтисодиётининг оптимал ривожланиш назарияси ҳисобланади. Унинг асосий хусусияти, минтақада иқтисодий жараёнларни тартибга солиш ва бошқаришга оптималлик тамойилини изчиллик билан қўлланилиши ҳисобланади. Минтақа туризмни ривожланиши оптималлигининг объектив мезонларини реализация қилувчи мураккаб тизим сифатида аниқлаш асосида оптимал ривожланиши назарияси сифат ва миқдор жиҳатдан ишлаб чиқариш натижалари ва ҳаражатлари қиёсий таққослаш муаммоларини чекланган меҳнат ва моддий ресурсларни оқилона таққослаш ва фойдаланиш, иқтисодиёт секторлари ривожланишининг оптимал суръатлари ва мутаносиблиги, ишлаб чиқариш объеклари ва бутун жамият манфаатларининг қўшилиб кетиши муаммолари тадқиқ этилади.

Моделлар иқтисодиётни тартибга солиш ва бошқаришнинг ҳамма тўпланган тажрибасига суяниши керак. Уларга барча даражаларда алоҳида бир кичик туристик корхонадан минтақа даражасигача, яхлит ҳолда энг



самарали, оптимал натижалар олиш имкониятлари юклатилиши зарур. Шу билан бирга, моделлар комплекс оқилона хўжалик юритишнинг иқтисодий имкониятларидан максимал даражада фойдаланиш имкониятларини таъминлаш зарурлиги соҳада кўрсатиладиган хизмат ва маҳсулотларнинг қуйдаги жихатларида ҳам эътиборга олиш лозим. Нарх, фойда, рентабеллик, моддий рағбатлантириш фақат ана шу ҳолатдагина оптимал қарор оптимал шартлар ва уни бажариш стимуллари билан қўшилади. Мақсадларни қўшиш бир неча босқичда бажарилади. Аввало мақсад муҳокама этилган ёки прогноз талабларига мос ҳолда қўйилади. Кейин унга эришиш учун ресурслар (тизимли ёндашув) кидирилади ва ниҳоят жалб этиш мумкин бўлган ҳамма ресурслар аниқланиб, мақсад ва унга эришиш даври (генетик ёндашув) аниқланади. Қўйи ва юқори даража тизими мақсадлари бир-бирига билан мос келадиган бўлиши ва кейингисига эришишга йўналтирилиши лозим, яъни қўйи даража тизимининг мақсадлари бириккан ҳолда юқори даража тизими мақсадини шакллантиради. 1-расм

### 1-расм. Минтақа туризмни ривожлантиришнинг оптимал бошқарув модели

Минтақа иқтисодиёти учта асосий тамойил фойдаланишга асосланиши керак:

❖ *биринчидан*, минтақа аҳолиси талабларини шаклланаётган бозорларнинг аҳволи ва динамикасини, давлат ва алоҳида ишлаб чиқариш субъектлари талабларини синчиклаб ҳисоблай олиш;

❖ *иккинчидан*, минтақалар ички ва ташқи омилларга иқтисодиёт структураларига максимал даражада мувофиқлашиш учун шароит яратиш;

❖ *учинчидан*, минтақа манфаатларини фаол тўла қондириш.

Минтақанинг иқтисодий динамикасини прогнозлашнинг комплекс сонли моделларининг концептуал асослари, барқарор иқтисодий ўсиш назариясидан, минтақанинг рақобатбардошлигини ошириш ва бошқалардан фойдаланилди. Туристик расмиятчилик, туристик хизматлар миллий бозорини етакчи туристик йўналишлардан бири сифатида жойлаштириш. Интеграция векторини амалга ошириш воситаси мамлакатлар ўртасида ўзаро тушуниш ва ишончни мустаҳкамлаш учун туризм соҳасидаги халқаро ҳамкорликдан фойдаланиш, ўзаро манфаатли ва паритетли иқтисодий, савдо, дипломатик муносабатларни ривожлантириш учун туризмдан фойдаланиш, ўзаро туристлар алмашинуви учун қулай шароитлар, техник ҳамкорликни ташкил этиш ва туристик расмиятчиликларни соддалаштириш.

**Узлуксизлик принципи** - туризм хизматлари бозорини ривожлантиришни бошқаришни ташқи муҳитни доимий мониторинг қилиш зарурати ва бозорнинг шаклланишига таъсир қилувчи фазовий ва қутбланиш



омилларининг трансформацион ўзгаришларига асосланган узлуксиз жараён сифатида белгилашдан иборат. ушбу ўзгаришлар билан боғлиқ мақсадлар ва стратегик устуворликларни доимий равишда тўғрилаш, тузатиш ёки аниқлаштириш заруриятини келтириб чиқаради.

**Самарадорлик тамойили** - бозорни ривожлантиришнинг ҳар иккала ички шарт-шароитларидан - ташкилий ва иқтисодий жиҳатдан самарали фойдаланишни назарда тутади; ижтимоий-иқтисодий, табиий-иқлим ва икки томонлама ва кўп томонлама асосда маданий, тарихий ва ташқи - самарали халқаро ҳамкорлик.

**Режалаштириш принципи** - асосий йўналишларни ва стратегик устуворликларни аниқлаш, ҳаракат дастурини тайёрлаш ва уни тизимнинг ҳар бир элементининг мутаносиб ривожланишини таъминлаш асосида амалга оширишни, унинг таъсир қилиш устуворлигига қараб амалга оширишни назарда тутади. мақсадларни амалга ошириш ва концепциянинг асосий мақсадига эришиш.

**Мақсадлилиқ принципи** - аниқ мақсадларни белгилаш, унга эришиш ва амалга ошириш имкониятларини, шунингдек, зарур ресурслар билан нисбатни ҳисобга олади. Иэрархия принципи - элементлар ва бўғинларнинг бўйсунуш кетма-кетлигини аниқлаш билан туристик хизматлар бозорини шакллантириш ва бошқариш даражалари ўртасидаги ўзаро алоқани шакллантиришдан иборат. Иэрархия даражаси бошқарув шаклларига боғлиқ бўлиб, у интеграция векторини амалга оширишда алоҳида аҳамиятга эга бўлади. Илмийлик тамойили (илмий асослилиқ) - туризм бозорини шакллантириш тизими ва механизмида фаннинг янги тушунчаларини, халқаро ва минтақавий ташкилотларнинг илғор тажрибасини, илғор тенденцияларни ва бошқарувнинг янги шакллари қўллаш заруратидан иборат.

**Тўлдирувчилиқ принципи** - бу туристик товарлар ва хизматларнинг кенг қамровли бўлиш имкониятини ҳисобга олиш зарурати, чунки битта туристик маҳсулот ёки хизматларни сотиб олиш доимий равишда барча турдаги хизматлар ва товарларни сотиб олишга бўлган эҳтиёжга олиб келади. Ўрнини босиш принципи комплекс туристик маҳсулотни ташкил этувчи алоҳида туристик хизматларнинг ҳам, умуман туристик маҳсулотнинг ҳам эркин алмашинуви имкониятидан иборат. Бу бозор субъектлари ўртасида рақобатнинг кучайишига, туристик мотивлар ва преференцияларнинг ўрганилиши устидан доимий мониторинг олиб борилишига, бозорда товар ва хизматлар таклифининг янгиланишига, харидорларни жалб қилиш ва уларни

ушлаб туриш бўйича кенг қўламли чора-тадбирларни шакллантиришга олиб келади.

Бошқарув жараёнининг тўртта асосий функциясига қўшимча равишда, хусусан: режалаштириш, ташкил этиш, мотивация ва назорат қилиш, туризм хизматлари бозорини ривожлантиришни бошқариш мақсадларга эришишни таъминлайдиган аниқ функциялар тўпламини шакллантиришни талаб қилади. ва контсепциянинг мақсадлари. Таклиф этилаётган контсепция доирасида ўзига хос функциялар:

- ❖ истеъмолчилар талабларини ҳисобга олган ҳолда юқори сифатли туристик маҳсулот таклифини режалаштириш;
- ❖ янги туристик ва дам олиш масканларини ривожлантириш тўғрисида қарор қабул қилиш учун комплекс туристик маҳсулот ишлаб чиқариш сифати ва туристик хизматлар кўрсатиш устидан назоратни амалга ошириш;
- ❖ маҳсулотлар, хизматлар, бошқарувни стандартлаштириш ва сертификатлаштиришни таъминловчи туристик хизматлар бозори субъектларининг ўзаро ҳамкорлигини мувофиқлаштириш;
- ❖ норматив, қонун ҳужжатларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишни таъминлаш;
- ❖ молиявий-кредит, инвестицияларни рағбатлантириш, бозор субъектларини имтиёзли қўллаб-қувватлаш.

Туризм хизматлари бозорини ривожлантиришда туризм соҳасини молиявий қўллаб-қувватлаш муҳим масала бўлиб, уни ҳал қилиш учун, бизнингча, қуйидагилар зарур:

- давлат ва хусусий бошқарувнинг тегишли даражасини, шунингдек, республика ва маҳаллий назорат қилувчи органларнинг ҳаракатларини аниқ мувофиқлаштиришни таъминлаш;
- туристик хизматлар бозорида хусусий ташаббусларни ривожлантиришга кўмаклашиш;
- самарали рағбатлантириш тизимини ишлаб чиқиш
- маишийташқи ва ички бозорларга туристик маҳсулот;
- бўйича зарур ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилади
- масалалартуризм соҳасига инвестициялар ва солиққа тортиш;
- янада такомиллаштириш тартиби оид ба Жумҳурии Ўзбекистон хорижи сайёҳҳо;
- туризм индустриясининг ахборот маконини шакллантириш ва бошқалар.

Туризм хизматлари бозорини рақобатбардош ривожлантириш, уни ишлаб чиқиш стратегиясини ишлаб чиқиш ва амалга оширишни таъминлаш учун фундаментал асос бўлиб хизмат қилади. Умуман олганда, туризм хизматлари бозорини ривожлантириш мақсадларига эришиш учун, бизнинг фикримизча, қуйидагиларни таъминлаш зарур:

- миллий ва минтақавий миқёсда туризм сиёсатининг мувофиқлиги ва туризмни ривожлантиришдан манфаатдор барча томонларнинг ваколатлари ва масъулияти функцияларини аниқ белгилаш: хусусий сектор, профессионал нодавлат ташкилотлар ва маҳаллий ҳамжамиятнинг ҳолати;

- ижтимоий шерикликнинг горизонтал ва вертикал интеграциялашган институтини: давлат, хусусий сектор ва уларнинг касбий бирлашмалари ва бирлашмаларини жорий этиш.

Шундай қилиб, туризмни самарали ривожлантириш муаммоларини ҳал қилиш Ўзбекистонга сайёҳлар оқимини ва мамлакат иқтисодиётига пул тушумларини сезиларли даражада ошириши, шунингдек, бир томондан, турли даражадаги бюджетларга солиқ чегирмаларининг ўсишини таъминлаши мумкин. ва туристлар бандлигини ошириш, иккинчи томондан, ҳудудлар ва унга туташ ҳудудларни ривожлантириш. иқтисодиёт тармоқлари. Буларнинг барчаси Ўзбекистон иқтисодиётида халқаро сайёҳлик ролини ошириб, миллий иқтисодиётни ривожлантириш, туристлар турмуш даражаси ва сифатини ошириш учун шароит яратади. Минтақада туризм хизматларини ривожлантиришнинг механизмини яратиш эса оптимал ечим ҳисобланади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Muxammedov M.M. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari // - S.: Zarafshon 2007. 299 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019 y., 03/19/549/3446-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-2666-son qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 iyundagi "Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat'iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4755-son qarori
5. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
6. <https://president.uz/ru/lists/view/3324>.
7. <https://www.unwto.org>.

**O‘ZBEKISTONDA ZIYORATGOHLAR VA QADAMJOLAR  
TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI****Xudoyorov Lochinbek**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Geografiya fani o‘qtuvchisi

**Normatov Sunnat**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Geografiya fani o‘qtuvchisi

**G‘aniyeva Dilnoza**

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi

2-kurs talabasi

**Xolmurodova Dinara**

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi

1-kurs talabasi

**Annatsiya:** Bugungi dunyoning globallashuv jarayonida rivojlangan davlatlar qatorida rivojlanayotgan davlatlar ham turizm sohasini rivojlantirish orqali YaIM ulushini turizm asosida rivojlantirish amalga oshirilmoqda. Maqolada O‘zbekistonda turizm va uning rivoji bo‘yicha bir qancha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, ziyoratgoh, qadamjo, madaniy, turizm, transport, mehmonxona, marketing, reklama, madaniy meros, regional turizm, turizm sektori, Buxoro, Shahrisabz, Navoiy, rekreatsiya.

**Annatation:** in the process of globalization of today's world, developing countries, among others, are developing a share of GDP on the basis of tourism through the development of the tourism industry. The article provides several recommendations on tourism and its development in Uzbekistan.

**Keywords:** Uzbekistan, shrine, kadamjo, cultural, tourism, transport, hotel, marketing, advertising, cultural heritage, regional tourism, tourism sector, Bukhara, Shahrisabz, Navoi, recreation.

**Аннaтaция:** в процессе глобализации современного мира наряду с развитыми странами, развивающимися странами также осуществляется развитие доли ВВП на основе туризма за счет развития туристической отрасли. В статье представлен ряд рекомендаций по туризму и его развитию в Узбекистане.

**Ключевые слова:** Узбекистан, святыня, кадамджo, культурная, туризм, транспорт, гостиница, Маркетинг, реклама, культурное наследие,

региональный туризм, туристический сектор, Бухара, Шахрисабз, Навои, рекреация.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Sharq allomalari tug'ilgan va yashab ijod qilgan buyuk zotlarning yurtidir. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda ziyoratgohlar va qadamjolar turizmini rivojlantirishning jahon tajribasidan kelib chiqib holda rivojlantirishning bir nechta yo'llari bor. Mamlakatning tarixiy, madaniy va ma'naviy boyliklari bo'yicha turistlarga taqdim etiladigan turli sayyohlik yo'nalishlarini kengaytirish, shuningdek, turizm infratuzilmasini yaxshilash lozim bo'ladi. Bundan tashqari, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yanada oshirish va turistlarga qulaylik yaratish ham muhim bo'lgan masalalardan biridir.

O'zbekistonda ziyoratgohlar va qadamjolar turizmini jadal rivojlantirish istiqbollari quyidagilardan iborat:

**1. Turizm infrastrukturasi rivojlantirish:** Mehmonlar uchun kerakli tuzilma va xizmatlarni modernizatsiyalash va rivojlantirish. Shu jumladan, mehmonxonalarini yangilash, transport tarmog'ini rivojlantirish, turistik obyektlarni ta'mirlash kabi loyihalarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

**2. Marketing va reklama:** Turizm potensialini dunyoga taqdim etish uchun marketing va reklama muhimdir. O'zbekistondagi turistik manzillar, tarixiy obyektlar, madaniy meroslar va boshqa turizm tuzilmalarini xalqaro platformalarda tanitish uchun xavfsiz investitsiyalar kiritish lozim bo'ladi.

**3. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish:** Turizm sohasida texnologiyalardan foydalanmaslikning iloji yo'q. Masalan, oldindan mehmonxonani onlayn brom qilish, mobil ilovalarning turlari va sifatini yaxshilash hamda virtual olam (3 D, 5 D, 7 D formatlarda xonaning o'zida tasvir hosil qilinadi), turistlarga qulaylik yaratishda katta o'rin egallaydi.

**4. Turizm xizmatlarining sifatini oshirish:** Xizmat sifatini oshirish uchun mehmonlar bilan mobil aloqa sifatini yanada yaxshilash hamda ularning talablari va istaklari bo'yicha xizmat ko'rsatishning sifatini oshirish lozim.

**5. Sifatli bo'lgan o'quv kurslari va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda tashkil etish:** Turizm sohasida sifatli ta'lim va bilimlarni rivojlantirish, turizm sektoriga yangi kasblarni jalb qilish orqali turizm sohasidagi xizmatlarning sifatini oshirishga yordam beradi.

**6. Regional turizmni rivojlantirish:** O'zbekistonning har bir regionida mavjud turistik potensialdan unumli foydalanish va hududlararo turizmni rivojlantirish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish kerak bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning turistlar uchun ko'pgina hududlari



bilan bog‘lab turadi va turizm darajasi bo‘yicha ommaviy ma’lumotlarni taqdim etishga imkon beradi.

Bu istiqbollarga e’tibor qaratilgan holda, O‘zbekistondagi ziyoratgoh va qadamjolar turizmini jadal rivojlantirish mumkin.

Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlari, O‘zbekistonning tarixiy va madaniy markazlaridan biri sifatida jahonga tanilgan. Mazkur viloyatda ziyoratgoh va qadamjolar turizmini rivojlantirishning bir nechta istiqbollari mavjud:

**1. Tarixiy obyektlar va madaniy meroslar:** Buxoro shahri va uning atrofidagi qishloq xo‘jaligi, shuningdek, Shahrisabz va Navoiyning tarixiy obyektlari turistlarning diqqatini jalb qiladi. Bu joylarda tarixiy va qadimiy bo‘lgan obyektlar hamda madaniy meroslarni tashkil etilishi, saqlanishi, namoyish etilishi kerak bo‘ladi.

**2. Turistik xizmatlar va infratuzilma:** Mehmonlarni qabul qilish, ularni joylashtirish, mehmonxonalarni ta’irlash, transport tarmog‘ini rivojlantirish va turistik obyektlarga yo‘l ko‘rsatib boruvchi gidlarni tayyorlash uchun turistik xizmatlar va infratuzilma yaratilishi lozim.

**3. Rekreatsiya zonalarini rivojlantirish:** O‘zbekiston tabiiy boyliklar bilan boy va Buxoro viloyati ham undan mustasno emas. Shuning uchun, bu yerlarda turistlar uchun chiroyli, qulay va xavfsiz bo‘lgan muhitni yaratish uchun rekreatsiya zonalarini rivojlantirish muhimdir.

**4. Oliy ta’lim muassasalari va kurslar:** Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida turizm sohasida oliy ta’lim muassasalari va kurslar ochilishi, turizm sohasida mutaxassislar tayyorlash uchun zarurdir. Bu mutaxassislar turizm sohasidagi yangiliklarga bo‘lgan tayyorlikka ega bo‘ladi va sektorni rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shishadi.

**5. Mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni qo‘llab-quvvatlash:** Mahalliy aholi turizm faoliyati va tadbirlarida qatnashish uchun ilmiy, ma’rifiy, ijtimoiy va sifatli bo‘lgan jarayonlarni rivojlantirishi lozim. Shunday qilib, turizm faoliyatini davom ettirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash muhimdir.

Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida ziyoratgoh va qadamjolar turizmini rivojlantirishda bu istiqbollar jadal, manfaatli va foydalidir. Bu faoliyat turizm sohasini rivojlantirish, hududlararo aloqalarni mustahkamlash va mamlakatning iqtisodiyoti hamda madaniyati uchun muhimdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. TURIZM MAMLAKATSHUNOSLIGI. H.R.HAMROEV. “Durdona” nashriyoti. Buxoro – 2022.

2. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учеб. Изд. Гриф. Мо. - М.: аспект. Пресс, 2004. - с. 400.

3. [https://www.iupr.ru/\\_files/ugd/b06fdc\\_794d33908c664ea18e353a777362a856.pdf?index=true](https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_794d33908c664ea18e353a777362a856.pdf?index=true)

4. [https://www.iupr.ru/\\_files/ugd/b06fdc\\_ed71e7a67cfd46fc83bfa6a7c23e012b.pdf?index=true](https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_ed71e7a67cfd46fc83bfa6a7c23e012b.pdf?index=true)

5. [https://www.iupr.ru/\\_files/ugd/b06fdc\\_42de0626453841b19eebb62cffb661e6.pdf?index=true](https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_42de0626453841b19eebb62cffb661e6.pdf?index=true)

6. [b06fdc\\_1eddc87f9bf24d5dbadcbf37405eb297.pdf \(iupr.ru\)](https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_1eddc87f9bf24d5dbadcbf37405eb297.pdf)

## ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК – МАМЛАКАТДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА

Туйчиев Анваржон Мухторжонович

Корпоратив бошқарув кафедраси катта ўқитувчиси, ТДТУ,  
[anvarjontuychiyev@gmail.com](mailto:anvarjontuychiyev@gmail.com)

Мамлакатимизда сўнгги йилларда туризмни ривожлантириш, хусусан, ички туризм оқимини кўпайтириш, ташқи сайёҳларни жалб этиш, бир сўз билан айтганда мамлакатнинг туризм салоҳиятини янада оширишга бир қатор ислохотлар амалга оширилмоқда. Сабаби жаҳон иқтисодий тизимининг ҳозирги ривожланиш босқичида туризм соҳаси жаҳон иқтисодиётидаги энг даромадли ва тез ривожланаётган тармоқлардан бири ҳисобланади.

Туризм соҳасига турли давлатларда турли даражада, масалан, ялпи ички маҳсулот, инвестициялар, барча иш ўринлари ва истеъмол харажатларининг тахминан 10-20 фоиз атрофида тўғри келади. Бундан кўринадики, халқаро туризм жаҳон иқтисодиётининг энг жадал ривожланаётган тармоқларидан биридир. Жаҳон туризм ва саёҳат Кенгаши (ВТТС) маълумотларига кўра, туризмнинг ўртача ўсиш суръати йилига 7-9% ни ташкил этади, бу умуман иқтисодиётнинг ўртача йиллик ўсиш суръатларидан анча юқори.<sup>5</sup>

Ўзбекистон катта сайёҳлик салоҳиятига эга мамлакат. Бой тарих, кўплаб маданий ва тарихий жойларнинг мавжудлиги – буларнинг барчаси мамлакатни рақобатчиларга нисбатан рақобатбардош қилади. Ўзбекистон ҳудудида жуда кўп маданий ва табиий диққатга сазовор жойлар мавжуд. 2021 йил 13 августдаги Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳузуридаги Туризм қўмитасининг “Интеграция қилиниши лозим бўлганнамойиш объектлари” (туризм объектлари) рўйхатида кўра, мамлакатда 602 та туризм объектлари мавжуд.<sup>6</sup>

<sup>5</sup> <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/home>

<sup>6</sup> [https://uzbektourism.uz/downloads/files/madaniy\\_meros\\_namoyish\\_objektlari.pdf](https://uzbektourism.uz/downloads/files/madaniy_meros_namoyish_objektlari.pdf)

Бирок, бундай улкан сайёҳлик салоҳиятига қарамай, Ўзбекистон «донор мамлакат», яъни хорижий мамлакатларга сайёҳларни фаол етказиб берувчиси ҳисобланади. мамлакатнинг жаҳон сайёҳлик хизматлари бозори таркибидаги улуши аҳамиятсиз ва атиги бир-икки фоизни ташкил этади.

Ўзбекистон туризм ва меҳмондўстлик саноатида жуда кўп муаммолар мавжуд бўлиб, улар туризм соҳасини ривожлантириш билан шуғулланадиган мутахассисларнинг фикрига кўра, қуйидагилардир:

- туристик инфратузилма етарли даражада ривожланмаганлиги;
- замонавий қулайлик даражасига эга бўлган кам сонли туристик тоифадаги меҳмонхоналарни жойлаштириш воситалари (2-3 «юлдуз»);
- меҳмонхоналар ва бошқа турар жой объектларида нарх-сифат нисбати номувофиқлиги;
- мамлакатнинг туризм имкониятларини давлат томонидан нотижорат рекламасининг етарли эмаслиги;
- кадрлар тайёрлаш даражаси пастлиги сабабли туризм саноатининг барча соҳаларида хизмат кўрсатиш сифатининг юқори даражада эмаслиги ва бошқалар.

Жаҳон тажрибасини ҳисобга олган ҳолда мавжуд вазиятни ўзгартириш учун Ўзбекистоннинг туризм саноатини ривожлантиришда давлатнинг фаол иштироки зарур. Муаллифнинг фикрига кўра, туризм соҳасидаги давлат-хусусий шериклик (ДХШ) саноатни ривожлантириш ва модернизация қилишга қўшимча инвестицияларни жалб қилади, бу табиий равишда туризм саноатининг ривожланиш даражасига таъсир қилади. ДХШ Ўзбекистон Республикасида ички ва қирувчи туризмни ривожлантириш омилига айланиши мумкин ва бўлиши керак.

Миллий иқтисодиётнинг турли соҳаларида давлат-хусусий шериклик механизмидан фойдаланишнинг жаҳон тажрибаси ушбу ижтимоий-иқтисодий ривожланиш воситаси юқори даражада самарадорлигидан далолат беради<sup>78</sup>. Туризм соҳасини ривожлантиришда давлат иштирокига бўлган эҳтиёж туристик инфратузилмани қуриш ва реконструкция қилиш пайтида харажатларнинг юқори даражаси ва узоқ муддатли қоплаш муддати билан боғлиқ. Бундан ташқари, тижорат туризм корхоналари миллий туризм рекламасини ишлаб чиқиш ва амалга оширишдан манфаатдор эмас.

Давлат-хусусий шерикликнинг асосий мақсади ҳар бир томоннинг ресурслари ва тажрибасини бирлаштириш орқали жамоат манфаатлари учун

<sup>7</sup> Tuychiev, A. (2021). Public-private partnership in the transport system of Undp. Aamerican journal of economic and business management, 4, 1-6.

<sup>8</sup> Tuychiyev A. M. Public-Private Partnership: Status, Problem and Prospects //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 95-98.

инфратузилмани ривожлантириш, энг кам харажатлар ва хавф-хатарларга эга бўлган ижтимоий аҳамиятга эга лойиҳаларни амалга оширишдир<sup>9</sup><sup>10</sup>. Давлат-хусусий шериклик инвестицияларни жалб қилишнинг сифат жиҳатидан янги ва самарали усули сифатида қаралади<sup>11</sup>.

Давлат-хусусий шериклик лойиҳалари узоқ муддатли инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш мақсадида давлат ва бизнес сектори ўртасидаги ҳамкорликнинг алоҳида тури ҳисобланади<sup>12</sup>. Туризм соҳасидаги давлат-хусусий шерикликнинг жаҳон амалиётида давлат ва бизнес тузилмалари ўртасидаги ҳамкорликнинг кўплаб намуналари тўпланган. Шартли равишда ушбу ҳамкорликни учта асосий йўналишга бўлиш мумкин<sup>13</sup>:

1) муҳандислик инфратузилмаси ва коммуникацияларига катта сармоялар киритиш зарурати билан боғлиқ мураккаб лойиҳаларни амалга оширишда ҳамкорлик (концессия шартномалари схемалари, лойиҳанинг инфратузилма қисмини лизинг ёки тўғридан-тўғри давлат томонидан молиялаштириш);

2) туристик ва кўнгилочар инфратузилма объектларини яратиш соҳасидаги ҳамкорлик (хусусий секторни рағбатлантириш учун турли воситалардан фойдаланиш: имтиёзлар, солиқлар, кредитлар ва бошқалар.);

3) миллий туризм маҳсулотини marketing ва реклама қилиш соҳасидаги ҳамкорлик (Миллий туризм маъмуриятларини яратиш).<sup>14</sup>

Туризм соҳасидаги самарали давлат-хусусий шерикликнинг энг яққол намунаси Туркия мисолидир. Замонавий Туркия курорт ва пляж туризми сегментида сайёҳлик бозорида дунёдаги етакчилардан биридир.

Туризм соҳасига давлат томонидан самарали аралашувнинг натижаси бизнес секторининг фаол иштирок этишидаги қонунчиликдаги тўсиқларни бартараф этиш бўлди. Туризмни ривожлантириш бўйича давлат дастурларини амалга ошириш жараёнида Туркия ҳукумати тезюрар йўллар,

<sup>9</sup> Tuychiyev Anvarjon Muxtorjonovich DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI MASALALARIGA XORIJIY ĖNDASHUVLAR // Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-va-xususiy-sektor-hamkorligi-masalalariga-xorijiy-ndashuvlar> (дата обращения: 07.06.2024).

<sup>10</sup> Tuychiev, A. (2021). Scientific approaches to public-private partnership in the transport system of Uzbekistan. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(05), 100-105.

<sup>11</sup> Iskandarov Kudrat Shuxratovich. WAYS OF USING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP MODELS IN THE DEVELOPMENT OF RAILWAY TRANSPORT STATIONS. "Сборник конференции - Ресурсосберегающие технологий на транспорте, 616-619. 2023"

<sup>12</sup> Искандаров, Кудрат. "ЙЎЛОВЧИ ТАШИШ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАРКЕТИНГ КОММУНИКАЦИЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ." *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук* 2.11 (2022): 150-154.

<sup>13</sup> Туйчиев Анваржон Мухторжонович, Туйчиев Анваржон Мухторжонович, & Умаров Давронбек Рустам ўғли. (2023). ВИДЫ РИСКА В ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОМ ПАРТНЕРСТВЕ. *International Conference "Law, Economics and Tourism sciences in the modern world"*, PARIS, FRANCE. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8003042>

<sup>14</sup> <http://www.mitt.ru/>

кўприклар, туннеллар, аэропортлар, электр энергетикаси объектларини куришда турли хил имтиёзлар учун қонун лойиҳаларини қабул қилди. Давлат-хусусий шериклик натижасида туризмни ривожлантириш учун энг қулай бўлган 9 та махсус иқтисодий зона ташкил этилди.

Бизнес тузилмаларининг фаол иштирокини рағбатлантирадиган иқтисодий воситалар сифатида ҳукумат сайёҳлик ишлаб чиқарувчилари учун солиқ ва бошқа имтиёзларни ишлаб чиқди. Иқтисодий имтиёзларнинг асосий турларига қуйидагилар киради:

- 49 йилга ерни ижарага беришнинг имтиёзли шартлари;
- газ, сув ва электр энергияси учун имтиёзли тарифлар;
- имтиёзли кредит ставкалари;
- 5 йил давомида ҚҚСни бекор қилиш, божхона тўловларини бекор қилиш.

Туризм соҳасидаги самарали ДХХ натижасида Белек курортини комплекс ривожлантириш (электрлаштириш, сув таъминоти, йўллар, телекоммуникациялар, меҳмонхоналар) амалга оширилди. Бундан ташқари, Istanbul, Анқара, Анталия халқаро аэропортларида 6 та терминални ишга тушириш бўйича лойиҳалар амалга оширилди.

Туркия сайёҳлик маҳсулотини илгари суриш соҳасида ҳам фаол давлат-хусусий ҳамкорлик олиб борилмоқда. Миллий туризм ассоциацияси вакили бўлган Туркия ҳукумати кенг кўламли реклама кампаниясини олиб бормоқда, миллий туризм маҳсулотини илгари суриш учун катта маблағ ажратиб келаётганлигини ижтимоий тармоқлардан ҳам англаш мумкин<sup>1516</sup>.

Бу туризм соҳасидаги кенг қамровли давлат сиёсати, шунингдек, давлат - хусусий шериклик воситасидан самарали фойдаланиш туфайли Туркия Ўрта ер денгизи туризм бозорида мутлақ етакчи бўлишга муваффақ бўлди.

Давлат ва бизнес тузилмалари ўртасидаги самарали ҳамкорлик туристик инфратузилмани куриш харажатларини камайтиради, мамлакатнинг инвестицион жозибadorлигини, туристик инфратузилмани ривожлантиришдаги хорижий инвестицияларнинг улушини оширади, Россиянинг ички ва қирувчи туризмни ривожлантириш учун жозибador мамлакат сифатида имиджини шакллантиради ва туристик оқимларни кўпайтиради<sup>17</sup>. Давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ва туризм бизнесининг

<sup>15</sup> [https://7universum.com/pdf/economy/8%20\(73\)%20\[21.07.2020\]/Kadirova.pdf](https://7universum.com/pdf/economy/8%20(73)%20[21.07.2020]/Kadirova.pdf)

<sup>16</sup> Рахматов З.Н., Туйчиев А.М. Значение маркетинговых программ в повышении лояльности пассажиров к услугам общественного транспорта //Материалы конференции АИП. – Издательство АИП, 2024. – Т. 3045. – №. 1.

<sup>17</sup> Туйчиев А., Rakhmatov Z., & Умарова, Д. (2023). ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК

МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТАМОЙИЛЛАРИ: ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК



тўғри симбиози билан мамлакат туристик оқимларнинг ижобий ўсиш динамикасига ишониши мумкин, бу эса ўз навбатида миллий иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари ва умуман мамлакат иқтисодиётининг ривожланишига туртки бериши мумкин.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Рахматов З.Н., Туйчиев А.М. Значение маркетинговых программ в повышении лояльности пассажиров к услугам общественного транспорта //Материалы конференции АИП. – Издательство АИП, 2024. – Т. 3045. – №. 1.
2. Туйчиев Анваржон Мухторжонович, Туйчиев Анваржон Мухторжонович, & Умаров Давронбек Рустам ўғли. (2023). ВИДЫ РИСКА В ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОМ ПАРТНЕРСТВЕ. International Conference «Law, Economics and Tourism sciences in the modern world», PARIS, FRANCE. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8003042>
3. Tuychiyev Anvarjon Muxtorjonovich DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI MASALALARIGA XORIJIY ĖNDASHUVLAR // Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-va-xususiy-sektor-hamkorligi-masalalariga-xorijiy-ndashuvlar> (дата обращения: 07.06.2024).
4. Iskandarov Kudrat Shuxratovich. WAYS OF USING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP MODELS IN THE DEVELOPMENT OF RAILWAY TRANSPORT STATIONS. «Сборник конференции - Ресурсосберегающие технологий на транспорте, 616-619. 2023»
5. Tuychiyev A. M. Public-Private Partnership: Status, Problem and Prospects //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 95-98.
6. Искандаров, Кудрат. «ЙЎЛОВЧИ ТАШИШ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАРКЕТИНГ КОММУНИКАЦИЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ.» Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 2.11 (2022): 150-154.
7. Туйчиев А., Rakhmatov З., & Умарова, Д. (2023). ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТАМОЙИЛЛАРИ: ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТАМОЙИЛЛАРИ. *Ресурсосберегающие технологии на*

МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТАМОЙИЛЛАРИ. *Ресурсосберегающие технологии на транспорте, 2022(2022), 477–480.* извлечено от <https://transport-research.uz/index.php/rs-conf/article/view/113>

“Yangi O'zbekistonda milliy turizm istiqbollari”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

*транспорте, 2022(2022), 477–480. ИЗВЛЕЧЕНО ОТ <https://transport-research.uz/index.php/rs-conf/article/view/113>*

8. Tuychiev, A. (2021). Public-private partnership in the transport system of Undp. Aamerican journal of economic and business management, 4, 1-6.

9. Tuychiev, A. (2021). Scientific approaches to public-private partnership in the transport system of Uzbekistan. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(05), 100-105.

10. [https://7universum.com/pdf/economy/8%20\(73\)%20\[21.07.2020\]/Kadirova.pdf](https://7universum.com/pdf/economy/8%20(73)%20[21.07.2020]/Kadirova.pdf)

11. <http://www.mitt.ru/>

12. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/home>

13. [https://uzbektourism.uz/downloads/files/madaniy\\_meros\\_namoyish obyektлари.pdf](https://uzbektourism.uz/downloads/files/madaniy_meros_namoyish obyektлари.pdf)

## YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TURIZM XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

**Farxodova Shohnoza Umidbek qizi**

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

“Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm” fakulteti magistranti

[farhodovashahnoza@gmail.com](mailto:farhodovashahnoza@gmail.com)

**Annotatsiya.** Jahon iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o‘rin egallagan turizm bugungi kunda jadal sur‘atlarda o‘smoqda. Turizmning rivojlanishida xavfsizlik masalalari katta ahamiyat kasb etadi. Garchi hech bir davlat sayyohlar xavfsizligini to‘liq kafolatlay olmasa-da, turizm muhim iqtisodiy tarmoqqa aylanib ulgurgan mamlakatlar tomonidan turizmda xavfsizlik masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Ushbu maqolada zamonaviy turizmda uchrashi mumkin bo‘lgan xavfsizlik muammolari ko‘rsatiladi va ular tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** turizmda xavfsizlik, zamonaviy turizm, xavf-xatarlar, mintaqaviy va milliy iqtisodiyot, salomatlik, BTT.

### KIRISH

Turizmda xavfsizlik tushunchasi keng ko‘lamli tushuncha bo‘lib, uni turizm rivojlanishining turli davrlarida turlicha talqin qilishgan. Turizmning rivojlanish bosqichlarining dastlabki yillari 1950-1970-yillarga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, ushbu davr mobaynida turizm sohasi ommalashishi uchun to‘siq bo‘lgan xavf-xatarlar sifatida xavfsizlikning elementar belgilarini keltirish mumkin. Bunday jihatlar qatoriga jamoat xavfsizligi, salomatlikka xavf solishi mumkin bo‘lgan holatlar,

shaxsiy gigiyena qoidalari, ichimlik suvining tozaligi, vaksina olish zarurati, hojatxonalarning ozodaligi, xorij mamlakatlarida yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish tartibi, milliy hokimiyat boshqaruvi kabilar kiradi.

Turizm rivojlanishi bosqichining ikkinchi davri sifatida qaraladigan 1970-1990-yillar oralig‘ida turizm xavfsizligiga salbiy ta‘sirini ko‘rsatgan omillar qatorida havo bezoriligi, havo kemalariga hujumlar, uyushgan terroristik faoliyat, xalqaro miqyosdagi tahdidlar turgan.

Mintaqaviy va milliy iqtisodiyot, madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot shakliga aylangan internet xavfsizligi, shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligi, ekologik xavfsizlik va shuningdek, tabiiy ofatlar ommaviy turizmning rivojlanish davri bo‘lgan 1990-2010-yillarda turizmda sayyohlar tez-tez uchrab turadigan xavfli vaziyatlar tarkibiga kirgan.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Zamonaviy turizm 2010-yildan to bugungi kunga qadar bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. Pandemiya, mamlakatlar hududidagi siyosiy vaziyatlar va nizolar, shu bilan bir qatorda, sayyohlarning tashrif buyurayotgan turistik destinatsiyasi to‘g‘risida yetarlicha ma‘lumotga ega bo‘lmasligi masalalari, hududning ichki tartib qoidalaridan bexabarligi zamonaviy turizmga nisbatan xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan bugungi kun muammolaridandir.

Turizmda xavfsizlik bir va ikki o‘lchamli nazariyadir. Bir o‘lchamli tushuncha deganda sayyohning hayotiy xavfsizligi, uning sog‘lig‘iga ta‘sir, shaxsiy buyumlarining xavfsizligi tushunilsa, ikki o‘lchamli tushuncha bu o‘rinda sayyohning atrofdegilariga nisbatan munosabati, ta‘siri, xavfini anglash mumkin. Turizm deyarli barcha mamlakatlarning iqtisodiy o‘rishini ta‘minlaydigan asosiy bir tarmoqqa aylanib ulgurgan davrda turizm xavfsizlik davlat ahamiyatiga molik mavzu bo‘lib xizmat qiladi. “Turli jinoyatlar, terrorizm, urushlar oqibatida yuzaga keladigan xavf-xatarlar, shu bilan bir qatorda, turistning hayotiga tahdid, mayda huquqbuzarlik, turistning xulqi, xatti-harakati, o‘zini tutishi natijasida paydo bo‘ladigan xavf-xatarlarga ko‘ra, ya‘ni mavjud xatarning turini aniqlash orqali turizm xavfsizlik tushunchasining mohiyatini ochib berish mumkin.”<sup>18</sup>

Shu o‘rinda, 1989-yilda Gaagada qabul qilingan deklaratsiyada ta‘kidlanganidek, “Turistlar xavfsizligi va himoyasi, ularning sha‘nini hurmat qilish turizm rivojlanishining so‘zsiz shartidir.”<sup>19</sup>

Istvan Kovari va Krisztina Zimanyining fikricha “Turizm xavfsizlik har doim sayohatning ajralmas sharti bo‘lib kelgan”.<sup>20</sup>

<sup>18</sup> Yoel Mansfeld Abraham Pizam. “Tourism, security and safety: from theory to practice.” Elsevier Butterworth-Heinemann. 2006. 2 p.

<sup>19</sup> The Hague Declaration on Tourism. Principle VII. ISSN electronic version: 2221-6987 | 1989 | volume 3, number 1 DOI: [www.e-unwto.org](http://www.e-unwto.org) 1989.03.01.

Turizm mutaxassislari turistik destinatsiya imidjining bir qismi – xavfsizlik degan fikrni turli yo‘llar bilan isbotlashga harakat qilishgan. Misol uchun, C.Xie, J.Zhang, A.M.Marrisonlarning ta‘rifiga ko‘ra “Barqaror tartib-intizom, muqobil atrof-muhit, mahalliy aholining mehmondo‘stligi, jamoat xavfsizligi tizimining mohiyati va mavjud qulayliklar – destinatsiya xavfsizligining bir ko‘rinishidir.”<sup>21</sup>

A.G. Bobkova fikriga asosan “Turizmning rivojlanishi uchun zaruriy tarkibiy qism sifatida xavfsizlikning murakkab obyekti - “millatlararo manfaatlar” deb qaraladi. Turizmda mazkur tushuncha – millatlar orasida o‘zaro ishonch mavjudligi va uning barqarorligi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ma‘nosida keladi.”<sup>22</sup>

N.T.Tuxliyev va O‘.Jiyanov bergan ta‘rifga ko‘ra “Xavfsizlik – turizm rivojlanishiga ta‘sir o‘tkazadigan bosh omil. U davlat siyosati, turfirmalar amalga oshiradigan chora-tadbirlar, shuningdek, turistning o‘zi bilan bevosita bog‘liq. Xavfsizlik – sifatli turmahsulotning ajralmas qismidir.”<sup>23</sup> Shunday ekan, yangi O‘zbekiston sharoitida turizm xavfsizlik masalalariga e‘tibor qaratish bugungi globallashuv davrida dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda.

### TADQIQOT NATIJALARI

Turizmning rivojlanishiga ta‘sir qiladigan salbiy omillarning eng birinchisi sayyohning xavfsizligi bilan bog‘liq. O‘ta nozik va ta‘sirchan soha hisoblanadigan turizmda sayohat qiluvchilarning shaxsiy xavfsizligidan muhimroq bo‘lgan narsa yo‘q.

Quyidagi mezonlar jahon mamlakatlarining turizm xavfsizlik ko‘rsatkichlarini tashki qiladi:

- siyosiy xavfsizlik darajasi;
- iqtisodiy xavfsizlik darajasi;
- ijtimoiy-madaniy xavfsizlik darajasi;
- ekologik xavfsizlik darajasi.

Germaniya hukumati har yili o‘z fuqarolarining xavfsiz turizmdagi ishtirokini ta‘minlash maqsadida sayohat qilish uchun tashrif buyurish tavsiya etiladigan va tavsiya etilmaydigan mamlakatlar ro‘yxatini e‘lon qiladi. O‘z navbatida, hukumat bunday mamlakatlarni 3 toifaga bo‘ladi. Birinchisi, harbiy harakatlar amalga oshirilayotgan mamlakatlar, ikkinchisi, terroristik faoliyat avj

<sup>20</sup> István Kóvári, Krisztina Zimányi. “Safety and security in the age of global tourism” (The changing role and conception of Safety and security in tourism). 67-69 p.

<sup>21</sup> C. Xie, J.Zhang, A.M. Marrison. “Developing a scale to measure tourist perceived safety. Journal of Travel Research.” 2021. 1232-1251 p.

<sup>22</sup> Бобкова А.Г. Безопасность туризма: учебник. Под общ. ред. д-ра юрид. наук. Е.Л. Писаревского. - М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 29 с.

<sup>23</sup> Nurislom Tuxliyev, O‘ktam Jiyanov. “Turizm xavfsizlik: Darslik.”, “Ilm-Ziyo-Zakovat” nashriyoti. - Toshkent. 2022. 3 b.

olgan hududlar hamda jinoyat darajasi yuqori bo'lgan davlatlar ro'yxatdan o'rin oladi.

Xorij tajribasi misolida Yangi O'zbekiston sharoitida inson qadri tamoyilini qo'llab-quvvatlagan holda O'zbekiston rezidenti tashrif buyurishi va tashrif buyurmasligi tavsiya etiladigan davlatlar ro'yxatini shakllantirishi maqsadga muvofiq bo'ladi, shuningdek, ushbu ro'yxatni omma orasida keng targ'ib qilish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish samaraliroq bo'lishi mumkin.

Quyidagi jadvalda keltirilgan mamlakatlarning ba'zi hududlari xavfsizlik darajasi nisbatan yaxshi bo'lsa, ba'zilarida xavflilik darajasi yuqori hisoblanadi. Misol tariqasida, terrorizm va uyushgan jinoyatchilik harakatlari kuzatiladigan Somali, Afg'oniston, Suriya va Iroq kabi mamlakatlarda harbiy nizolar mavjudligini mazkur mamlakatlarda hayotiy xavfsizlik darajasi ancha pastligini ko'rish mumkin. Braziliyaning urbanizatsiya yuqori bo'lgan qismlarida jinoyatchilik avj olgan. Mexikoda noqonuniy dorilar savdosi jinoyatchilik darajasining asosini tashkil qiladi. Ekologik xavfli hududlar bo'yicha Xitoy va Hindistonda ifloslanish darajasi tashrif buyuruvchilarning salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy omildir. Filippin hududlarida tayfun va yer ko'chishi sayyohlarning hayotiy xavfsizligiga tahdid soladigan tabiiy ofatlar qatoriga kiradi.

**1-jadval.**

**Kategoriyalar bo'yicha turistik sayohatlar uchun xavfli destinatsiyalarning ro'yxati (mamlakatlar kesimida)**

<b>Harbiy harakatlar amalga oshirilayotgan hududlar</b>	<b>Terroristik jinoyatlar avj olgan hududlar</b>	<b>Jinoyat darajasi yuqori bo'lgan hududlar</b>	<b>Ekologik xavf mavjud bo'lgan hududlar</b>
<b>Suriya</b>	Somali	Venesuela	Xitoy
<b>Afg'oniston</b>	Afg'oniston	Gonduras	Hindiston
<b>Yaman</b>	Iroq	Janubiy Afrika	Bagladesh
<b>Somali</b>	Suriya	Salvador	Nigeriya
<b>Iroq</b>	Nigeriya	Gvatemala	Indoneziya
<b>Liviya</b>	Pokiston	Braziliya	Braziliya
<b>Ukraina</b>	Liviya	Mexiko	Filippin
<b>Myanma</b>	Yaman	Kolumbiya	Madagaskar
<b>Janubiy Sudan</b>	Mali	Yangi Gveniya	Kongo



			Demokratik Respublikasi
<b>Markaziy Afrika Respublikasi</b>	Misr	Yamayka	Gaiti

*Manba WorldData.info rasmiy veb-sayti ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan.*

“Garchi turizm insonlarni birlashtirib tursa ham, sayohatga to‘siq bo‘luvchi omillar bizni bir-birimizdan ajratib turishi mumkin.”<sup>24</sup> - deya ta’kidlaydi Butunjahon Turizm Tashkiloti bosh kotibi Zurab Pololikashvili. Boshqacha qilib aytganda, shaxsiy xavfsizlik hamma narsadan ustun bo‘lgan hozirgi dunyoda sayohat xavfsizligi ta’minlanganligi sayohatdan zavqlanish imkonini berishi mumkin bo‘lgan dastlabki qadamdir.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Turizm iqtisodiyotning muhim tarmog‘i bo‘lishi bilan birga mamlakatlar o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini ham bajaradi. Turizm sanoati xavfsizlik tizimini samarali amalga oshirilishini taqozo etadi. Milliy va xorijiy sayyohlarning dunyo bo‘ylab sayohati davomida hayoti, salomatligi va shaxsiy buyumlari xavfsizligi tahlikada bo‘lmasligi zarur.

Shu jihatlarni hisobga olgan holda, O‘zbekistonda zamonaviy turizmga xavfsizlikni ta’minlash maqsadida quyidagilar taklif etiladi.

- turistik destinatsiyalarda xavfsizlik darajasi bo‘yicha ma'lumotlarni mamlakatlar kesimida ko‘rib chiqish, tahlil qilish;
- mazkur reytingni keng omma orasida targ‘ib qilish, ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilish;
- ushbu reytingni har yili ommaga taqdim qilishni an’anaga aylantirish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni. 2019-yil, 18-iyul. O‘RQ-549-son. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Tuxliyev N.T., Jiyanov O‘. Turizmga xavfsizlik: Darslik. “Ilm-Ziyo-Zakovat” nashriyoti. - Toshkent. 2022. 3 b.
3. C. Xie, J.Zhang, A.M. Marrison. Developing a scale to measure tourist perceived safety. Journal of Travel Research. – 2021.
4. István Kôvári, Krisztina Zimányi. Safety and security in the age of global tourism (The changing role and conception of Safety and security in tourism). 2015.

<sup>24</sup> Butunjahon Turizm Tashkiloti rasmiy veb-sayti. <https://www.unwto.org/>

5. The Hague Declaration on Tourism. ISSN electronic version. [www.e-unwto.org](http://www.e-unwto.org). 1989.03.01.
6. Yoel Mansfeld Abraham Pizam. Tourism, security and safety: from theory to practice. Elsevier Butterworth-Heinemann. 2006. 363 p.
7. Бобкова А.Г. Безопасность туризма: учебник. Под общ. ред. дра юрид. наук. Е.Л. Писаревского. - М.: Федеральное агентство по туризму. 2014. – 272 с.
8. [www.unwto.org](http://www.unwto.org). – Butunjahon Turizm Tashkiloti rasmiy veb-sayti.
9. [www.worlddata.info](http://www.worlddata.info) – Butunjahon ma'lumotlar bazasi.

## ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ

**Жамалова Д.М.**

Студентка Ташкентского государственного транспортног университета,  
**Научный руководитель: Умарова Д.Р.**, доцент Ташкентского  
государственного транспортного университета  
*e-mail:* [umarova\\_dilfuza\\_3103@mail.ru](mailto:umarova_dilfuza_3103@mail.ru)

**Аннотация:** Данная статья посвящена туризму в Каракалпакстане, его особенностям развития на современном этапе и стратегических направлениях развития данного направления.

**Ключевые слова:** туризм, экстремальный туризм, экотуризм.

Туризм - это путешествие, совершаемое человеком в свободное от основной работы время в оздоровительных, познавательных, профессионально-деловых, спортивных, религиозных и иных целях. Это один из видов активного отдыха, наилучший способ отвлечься от суеты, увидеть новое и интересное, набраться положительных эмоций. Туризм дает возможность познакомиться с культурой других стран и регионов, удовлетворяет любознательность человека, обогащает его духовно, оздоравливает физически, способствует развитию личности. Он позволяет совмещать отдых с познанием нового.

Самый суровый регион Узбекистана – Республика Каракалпакстан, в последние годы стал объектом повышенного внимания со стороны сферы туризма. Это на первый взгляд кажется, что в Каракалпакстане безжизненные пустынные пространства, высохшее Аральское море и нет исторических памятников.

На самом деле это не так. Каракалпакстан богат и на исторические памятники. Всем известны древние крепости Кызыл-кала, Элик-кала,

уникальный комплекс Миздакхан. Немало культурно-исторических объектов находится на территории Нижне-Амударьинского государственного биосферного резервата. Среди них выделяются культовое сооружение Чильпык, городище Джанпык-кала и другие.

Туры в Каракалпакстан - это знакомство с республикой на северо-западе Узбекистана, являющейся родиной печально известного Аральского моря и знаменитого на весь мир Музея Савицкого, где собрана редкая коллекция русской авангардной живописи. В настоящее время в Республике Каракалпакстан действуют более 45 туристических организаций, что свидетельствует о высоком туристическом потенциале Республики Каракалпакстан.

Большим спросом пользуются гостиничные услуги, пришедшее вместо древних караван-сараев. На сегодняшний день в Республике Каракалпакстан 86 мест размещения туристов, из них 33 гостиницы, 36 семейных гостевых домов и 17 хостелов оказывают современные услуги иностранным и местным туристам. Для перемещения туристов используются 11 микроавтобусов, 45 внедорожников и 12 квадроциклов, а также используют автотранспорт с повышенной проходимостью для организации поездок в Аральское море. В штате ведомства 25 гидов-переводчиков, обслуживающих свыше 200 объектов, в числе которых мастерские народных умельцев, музеи, парки развлечений, аквапарки и прочие аттракционы.

Главной причиной посетить Каракалпакстан является Муйнак, богатый рыболовецкий город на берегу Аральского моря-озера. Строительство Каракумского канала и орошение хлопковых полей послужили причиной экологической катастрофы: озеро высохло и отошло от города на 100 километров. Цветущий Муйнак превратился в город-призрак с населением 18000 человек. Судходство по морю прекратилось в 1970 году, и на его месте появилось «кладбище кораблей», которое должен увидеть каждый, чтобы понять, как легко уничтожить природу.

Под председательством Президента Шавката Мирзиёева 3 июня 2024 года состоялось видеоселекторное совещание по мерам улучшения туристической инфраструктуры в регионах и увеличению потока иностранных туристов. Президент поставил задачу принять программу по развитию экстремального туризма в Узбекистане. В Каракалпакстане планируется создать зону полётов на воздушных шарах по примеру турецкой Каппадокии. Президент отметил возможность организации прыжков с парашютом в аэропорту Муйнака. Руководителям Минэкологии, Минтранса и Минобороны республики поручено принять программу по развитию экстремального туризма.

«В аэропорту Муйнака можно развивать экстремальный туризм за счёт организации прыжков с парашютом и воздушного дайвинга. Для этого необходимо отдельно создать воздушную зону, как в турецкой Каппадокии. В Каппадокии в 2023 году на воздушных шарах оказаны услуги 600 тысячам туристов, что принесло доход в 100 млн долларов», — заявил глава государства.

Каждый посетитель Республики Каракалпакстан, конечно же, посетит Государственный музей искусств Республики Каракалпакстан им. И.В.Савицкого и обязательно полюбуется ценными экспонатами. Музей включает в себя народное искусство, древнее и средневековое искусство Хорезмской цивилизации, творчества узбекского и русского изобразительного искусства 1920х-1930х годов, скульптуры и современную каракалпакскую живопись, научно-образовательный отдели более 90 000 экспонатов, таких как ювелирные и текстильные изделия, резьба по дереву, и национальные костюмы, относящиеся к 1920-1930 годам, которые находятся центре внимания туристов.

В Республике Каракалпакстан развивается не только туризм по историческим и легендарным городами, но и экотуризм. В настоящее время Республика Каракалпакстан имеет 11 583 гектар охранных зон природы. В этих заповедниках насчитывается 826 голов бухарских оленей, 43 вида рыб в водохранилищах заповедника, 11 видов пресмыкающихся и более 10 видов других животных.

Развитие экотуризма в Каракалпакстане позволило увеличить точки вложения средств для отечественного бизнеса. Так, ООО «Jasmine gold group» осуществляется проект на 4 млрд сумов по возведению туристического комплекса на прилегающей к Аральскому морю территории общей площадью 100 га, в 170-180 км от Муйнака. Для посетителей установят юрты, айваны, служебные помещения, пешеходные дорожки, санитарно-гигиенические объекты.

В Республике Каракалпакстан принята Стратегии развития туризма на 2023-2026 год и разработан проект программы мероприятий по ее реализации. Целью Стратегии является диверсификация туристических продуктов и повышение качества услуг, улучшение инфраструктуры, создание новых туристических направлений, повышение индекса экспорта в секторе, проведение рекламных мероприятий на зарубежных туристических рынках и создание новых рабочих мест.

Данная стратегия предусматривает:

- создание звездных отелей в районе;

- совершенствование транспортно-логистической системы для внутренних и иностранных туристов, в частности, организация внутренних и зарубежных авиа- и железнодорожных перевозок;
- подготовка гидов, владеющих английским, русским, немецким, французским, итальянским, турецким, испанским языками с опытом и знаниями;
- увеличение продолжительности пребывания туристов (ночевки) и их расходов в среднем на 7-10% в год;
- к 2026 г. количество иностранных туристов увеличится до 180 000 (50 000 в 2022 г.) и 1 млн внутренних туристов. (552 тыс. в 2022 г.), экспорт туристических услуг с 13,5 до 60 млн долл. США, увеличить количество номеров в средствах размещения с 1 005 до 1 905 в долларах США;
- развитие крепостного туризма (Castles) с Хорезмской областью, эффективное использование возможностей Музея Савицкого, Аральского моря, озера Судочье и плато Устюрт;
- определены задачи, которые необходимо реализовать по ряду приоритетных направлений, таких как проведение маркетинговых мероприятий и размещение турпродукта Каракалпакстана на международных туристических площадках.

В заключении хотелось бы отметить неотъемлемую роль туризма в развитии территорий, а республика предпринимает все меры в поддержке туристической отрасли.

### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-135 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туристского потенциала республики, а также дальнейшему увеличению количества местных и иностранных туристов» от 26 апреля 2023 года.
2. Материалы видеоселекторного совещания президента РУз Мирзиёева Ш.М. по мерам улучшения туристической инфраструктуры в регионах и увеличению потока иностранных туристов. 03.06.2024 года
3. Стратегия «Устойчивое развитие туризма в Республике Каракалпакстан в 2023-2026 годах»
4. *М.Холмухамедов.* [Как события в Каракалпакстане могут повлиять на сферу туризма — мнение эксперта. Электронное издание NOVA24.UZ.](#) 6 июля 2022
5. Бекбулатова Г.А. Пути и возможности развития туризма в Каракалпакстане// Туризм. 2023



URL [[ПУТИ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В  
КАРАКАЛПАКСТАНЕ \(cyberleninka.ru\)](https://cyberleninka.ru/article/n/puti-i-vozmozhnosti-razvitiya-turizma-v-karakalpakstane/viewer) <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-i-vozmozhnosti-razvitiya-turizma-v-karakalpakstane/viewer>]